



**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**KIMYO –BIOLOGIYA FAKULTETI
“GEOGRAFIYA ” KAFEDRASI
III-BOSQICH TALABASI
ISMOILOVA DILDORA**

БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШИ

**Мавзу: “ ANDIJON VILOYATINING IJTIMOIIY
SOXALARI”**



Илмий рахбар:

АТАЖАНОВ М.

АНДИЖОН - 2011

REJA :

BOB.IJTMOIY SOXALARNI GEOGRAFIK O`RGANISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI .

I.1. IJTIMOY SOXALARNI TADQIQ ETISHNING GEOGRAFIK JIXATLARI .

I.2. O`ZBEKISTONDA IJTIMOY SOXALARNI XUDUDY TASHKIL ETISH VA RIVOJLANISHI .

II. BOB. ANDIJON VILOYATINING IJTIMOY SOXALARINI SHAKILLANISHI VA RIVOJLANISHI .

II.1. ANDIJON VILOYATI AXOLISI VA DEMOGRAFIYASI .

II.2. ANDIJON VILOYATI IJTIMOY SOXALARINI XUDUDY TASHKIL ETILISHI VA RIVOJLANISHI.

II.3. VILOYATDA IJTIMOY SOXALAR RIVOJLANISHINING ASOSIY MUAMMOLARI .

XULOSA .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI :

SO'Z BOSHI

Xizmat doirasining tarkibi geografik o'rganishning vazifalari. uni xududiy tashkil etishga ta'sir ko'rsatadigan sharoitlar jamiyat iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotining muhim xususiyatlariga taaluqli bo'lib, ayni vaqtda iqtisodiy va itimoiy geografiyaning o'rganish ob'ekti hisoblanadi.

Ishlab chiqarishning iqtisodiy taraqqiyot darajasi qanchalik yuksak bo'lsa, xizmat doirasiga bo'lgan talab uni rivojlantirish imkoniyati shuncha yuqori bo'ladi. Xizmat doirasiga quyidagilar kiradi: uy-joylardagi kamunal xizmat, aholiga transport xizmati, savdo va umumiy ovqatlanish, ijtimoiy ta'minot xizmati, bolalar muassasalari va umumiy ta'lim maktablari, tibbiy xizmat, maishiy xizmat, aholining madaniy ehtiyojlarini qondirish, aholi havsizligi va qonunchiligini saqlash, sport turizm xizmati va x. k.

Mazkur qo'llanmada noishlab chiqarish tarmoqlarining bugungi qiyofasi, rivojlanish jarayonlari, aholining xizmat ko'rsatish tarmoqlariga bo'lgan talab va ehtiyojlari, umuman nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlari va ularnirng geografik xususiyatlari haqidagi muayyan bilimlar hamda aholiga xizmat ko'rsatishning O'zbekiston Respublikasi miqyosida o'ziga xos hususiyatlari va muammolari o'z aksini topgan.

Aholining jinsiy va yosh tarkibi, oilaviy ahvoli kasb-hunari, tug'ilishi va o'lim darajasi.

Aholining hududiy joylashuvidagi o'ziga xos xususiyatlar o'lkani iqtisodiy o'zlashtirishda kechadigan oru'zoq tarixiy jarayonlar va ularga ta'sir etadigan iqtisodiy-geografik omillar yordamida shakllanadi. O'zbekistonda shu holatni ko'ramiz. Qurg'oqchil iqlimga ega bo'lgan O'zbekistonda o'zoq zamonlardan buyon aholi asosan qulay tabiiy - iqtisodiy va geografik sharoitga, suv manbalariga ega bo'lgan vodiy-vohalarda ancha zich yashagan. Qadimdan o'zlashtirilib kelingan Farg'ona, Zarafshon vodiylari, Xorazm va Toshkent vohalari hozirgi kunda Respublikada aholi eng zich joylashgan mintaqadir.

Aholining hududiy joylashuvi va zichligi muayyan hududni iqtisodiy o'zlashtirish jarayoni bilan bog'liqdir. Iqtisodiy o'zlashtirish esa, o'z navbatida, har bir mintaqaning aholi xo'jalik faoliyati uchun qulay yoki noqulayligi bilan bog'liq bo'ladi.

O'zbekiston aholisining o'rtacha zichligi 1991 yilda 1 km² ga 46.3 kishi tugri kelgan), MDH mamlakatlari aholisi o'rtacha zichligidan ancha yuqoridir. Respublika hududi tabiiy

sharoitining va o'zlashtirish darajasining turlichaligi, aholining notekis joylashuvini ifodalaydi.

Eng yuqori aholi zichligi Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlari joylashgan Farg'ona iqtisodiy nohiyasi hissasiga to'g'ri keladi. Unda har 1 km² maydonga o'rtacha 290.5 kishi joylashgan. Andijon viloyatida esa aholining o'rtacha zichligi 427.4 kishiga teng. Aholining o'rtacha zichligi ko'rsatgichiga ko'ra Farg'ona vodiysi hamdo'stlik mamlakatlarida eng yuqori o'rinda turadi.

Aholi zichligiga ko'ra ikkinchi o'rinni Toshkent iqtisodiy rayoni turadi. Bu erda har 1 km² ga 275 kishi to'g'ri keladi. Aholi zichligining yuqoriligi vohaning muhim xo'jalik mintaqasi bo'lganligi va eng muhimi, O'rta Osiyoning yirik shahri -Toshkentning shu erda joylashgani bilan izohlanadi.

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonining qadimiy dehqonchilik vohalaridan biri Xorazm viloyati ham ancha zich hududlaridan hisoblanadi. Unda aholi har 1 km² ta 169.5 kishidan to'g'ri keladi.

Buxoro viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekistonning aholi eng siyrak yashaydigan mintaqalaridir. Ularda Aholining o'rtacha zichligi 1 km² ga 12.0 va 7.7 kishi to'g'ri keladi. Buning asosiy sababi, Qizilqum cho'li va Ustyurt platosining iqtisodiy jihatdan kam o'zlashtirganligidir.

Shunday qilib, O'zbekiston aholisining hududiy joylashuvida keyingi o'n yilliklarda anchagina ijobiy siljishlar ro'y berdi.

O'zbekiston aholisining hududiy taqsimlanishida o'sish suratlarida ko'chish (migratsiya)ning ishtiroki katta bo'lsa-da, o'zbeklarniig o'lkalararo ko'chishidagi ishtiroki deyarli barcha davrlarda kam bo'lgan. Jami o'zbeklarning O'rta Osiyo va Qozogiston mintaqasidan boshqa hududlarida atigi 5% i joylashgan. Hozir dunyoning turli mamlakatlarida barcha o'zbeklarning atigi 10% ga yaqini yashamoqda.

Shunday qilib, o'zbek xalqi hatto iqtisodiy-ijtimoiy turmush murakkab davrlarda ham mamlakatlararo ko'chishlarda kam qatnashgan.

Shu bilan birga, O'zbekiston aholining ichki hududiy taqsimlanishda ko'chish (aholining ko'chib kelish hisobiga) faol sodir bo'ldi. Aholining tashqaridan ko'chib kelishi O'rta Osiyo Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingandan keyin kuchaya boshladi. O'zbekistonga dastlab ish boshqaruvchilar, quruvchilar, tijorat xodimlari kabi rus mutaxassislari, 90 - yillardan boshlab esa oddiy rus muhojirlari kelib o'rnamshdi. Markaziy Rossiyadagi 1891 yilgi qahatchilik natijasida ruslarning ko'chib kelishi ayniqsa kuchaygan edi. Volkov ma'lumotiga ko'ra Turkistonga ko'chib kelganlar soni 1910 yilda 7.6 ming, 1916 yilda 29,6 ming, 1917 yilda 54.5 ming, 1918 yilda 68 ming kishini tashkil etdi.

1926 yilgi birinchi Butunittifoq aholi ro'yhati ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda turli yillarda ko'chib kelib o'rtnashgan aholining umumiy soni 437643 kishi edi. O'zbekistonning sanoati ancha rivojlangan Toshkent, Farg'ona va Zarfshon mintaqalari markazlariga aholi ko'p ko'chib kelgan.

Sirdaryo, Jizzax, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida keyingi davrlarda katta eytr maydonlari o'zlashtirganligi munosabati bilan boshqa viloyatlardan aholi ko'plab ko'chib keldi. Ko'chib o'tgan aholining ko'pchiligi Farg'ona vodiysi vaqillaridir. Respublika ichki ko'chishning asosiy yo'nalishlaridan biri aholining qishloq joylaridan shaharlarga o'tib joylashishidir. Keyingi yillarda bu jarayon rivojlanib borayotgan bozor iqtisodiyoti munosabati bilan yanada tezlanishi kutiladi.

Aholining shahar va qishloq o'rtasida taqsimlanish darajasi joylarda sanoat bilan qishloq xo'jaligining qay darajada rivojlanganligiga bog'liq bo'ladi. O'zbekiston sanoatining yuksalishi natijasida Respublika aholisining shahar va qishloq o'rtasida taqsimlanishida katta ijobiy siljishlar ro'y berdi, ya'ni shahar aholisi salmog'i ancha tez o'sdi. Agar 1897 yilda O'zbekistonda aholining atigi 18.8% i shaharlarda yashagan bo'lsa, bu ko'rsatgich 1926 yilda 22.0% ga, 1940 yilda 24.5%, 1959 yilda 33.6%, 1970 yilda 36.6%, 1979 yilda 41.2% va 1989 yilda 40.7% ga etdi.

O'zbekitonda shahar aholisi mutloq sonining o'sish sur'atlari butun aholiga nisbatan ham ancha yuqoridir. Jumladan, 1913 - 1989 yillar orasida Respublikada shahar aholisi 7.7 marta o'sgani holda butun aholi 4.6 marta va qishloq aholisi 3.6 marta o'sdi.

Shunga qaramay, O'zbekistonda urbanizatsiya darajasi Ham-do'stlik va uning ko'pchilik Respublikaridagidan ancha past. Jumladan, shahar aholisining salmog'i Hamdo'stlikda 66% bo'lgani holda O'zbekistonda bu 40,7%ga teng. Buning asosiy sababi, O'zbekistonda sanoat rivojlanishining ancha past va qishloq aholisining o'sishi sur'atlari undan yuqori ekanligidadir. O'zbekitonning mustaqillik sharoitida rivojlantirilishi unda yaqin kelajakda ko'plab sanoat korxonalari, birinchi navbatda qishloq xo'jaligi xom ashyosi ishlaydigan korxonalar paydo bo'ladi. 1990 yildan e'tiboran O'zbekiston qishloq va shaharlarda yashagggan oilalar uchun ko'rilgan tadbirlar, ularning joylanishida va rivojlanishida yangi istiqbollar ochib beradi.

Umumiy ta'lim, sog'liqni saqlash va madaniyat tarmoqlarining xizmati umumlashtirilgan holda ijtimoiy maishiy xizmat ko'rsatish sohasi deyiladi. Ijtimoiy-madaniy xizmat hozirgi paytdagi rivojlanish pallasida muhim soha bo'lib, bu mehnatkashlar hayotida, ayniqsa uning har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashdagi ahamiyati juda kattadir.

Ijtimoiy - madaniy xizmat ko'rsatish tarmokqlari orasida xalq talimi juda muhim o'rin tutadi.

Xalq ta'limi xizmati tizimiga maktabgacha bolalar tarbiyasi muassasalari, umumta'lim maktablari kiradi. O'zbekiston Hamdo'stlikda umumta'lim maktablaridagi o'quvchilar soni mutassil yuqori suratlarda oshib borayotgan Tojikistondan keyingi ikkinchi Respublikadir. Demak,

umumta'lim maktablari O'zbekistonda eng keng tarqalgan, Respublika aholisi eng ko'p foydalanadigan xizmat doirasi tarmoqlaridan biri bo'lib qoldi. Shuning uchun ham bu sohani rivojlantirishga mustaqil O'zbekistonda alohida e'tibor berilmoqda. Respublikamizda maktabgacha tarbiya muassasalari ham keng tarqalgan, chunki shu yoshdagi bolalarning soni va salmog'i ancha yuqori. Lekin, hali tarbiya muassasalariga bo'lgan talab to'la qondirilganicha yo'q. Maktabgacha tarbiya muassasalari (bolalar yashilari, bog'chalari) qurishga keyingi yillarda katta e'tibor berilmoqda.

O'zbekistonda mehnat resurslarining soni, salmog'i va o'sish sur'atlari, ularning xalq xo'jaligi tarmoqlarida va Respublika hududida taqsimlanishi, nihoyat, mehnat resurslaridan foydalanishning samaradorligi o'ziga hosdir.

Tabiiy o'sish yuqori bo'lgan O'zbekiston aholisi tarkibida yosh avlod salmog'ining ko'p bo'lishi, o'z navbatida, mehnat yoshidagi aholi salmog'ining nisbatan kamayishiga olib keladi. Shu bilan birga tabiiy o'sishning yuqoriligi unda mehnat resurslari sonining doimo ko'payib borishini ta'minlaydi.

Ma'lumki, mehnat yoshidagi aholi ishlab chiqarishda turli sabablarga ko'ra ishtirok etolmaydi. Ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qish, armiya, ishlashga sog'ligi yo'l bermasligi kabi ob'ektiv sabablardan tashqari, sub'ektiv sabablar ham sabab bo'ladi. Ko'p bolali onalar, shaxsiy xo'jalik yumushlari bilan band amallar kabilardir. O'zbekiston ko'p bolali onalardan bo'lib, ularni voyaga etkazib, tarbiyalash jamiyat uchun foydali hisoblanadi.

Moddiy ishlab chiqarishning o'z ichida, uning turli tarmoqlarida ishlovchilarning soni va salmog'i ham turlicha. Avvalo, sanoat, qurilish, transport va aloqada ishlovchilarning salmog'i muttasil ortib bormoqda. Bu o'rinda sanoatni o'rni alohida ahamiyatga ega. Keyingi yillarda Respublikamizda sanoatning mashinasozlik va metallsozlik, kimyo, elektronika kabi texnika turlari tez rivojlandi. Bu tarmoqda ishlovchilar sanoatdagi barcha kishilarning yarmidan ko'pini tashkil qiladi.

Lekin, sanoat, qurilish, transport va aloqada ishlovchilarning salmog'i Respublikamizda butun hamdo'stlikdagi o'rtacha ko'rsatgich-lardan ancha past. Bu tarmoqlarda xalq xo'jaligida band bo'lgan aholining salmog'i tegishli 29.2% va 50.8% ni tashkil qiladi. Buining sabablari bor.

- Respublikamizning qulay iqlim sharoiti paxta ekishga moslashgan. Bu esa aholini ko'p qismini qishloq xo'jaligida ishlashga olib keladi.

- Yana bu erda inqilobdan oldin sanoat mehnati deyarli yo'qligi. Kelajakda sanoatning roli va salmog'i yanada ortib boradi. Respublikada boy yoqilgi—energetika va mineral xomashyo resurslarining mavjudligi, mustaqil O'zbekistonning rivojlanish ehtiyojlari buning garovidir.

Ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lgan aholining xalq xo'jaligida taqsimlanishida Respublikamizga xos yana bir xususiyat - qishloq xo'jaligida band bo'lganlarning ko'pligidir,

Respublikamizda qishloq xo'jaligida band bo'lganlar iqtisodiy faol aholining 38.4% ni tashkil etadi va birinchi o'rinda turadi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligida ishlovchilarning butun aholi o'rtasidagi salmog'i umuman kamaymoqda, 1939 yildagi 70.8% dan 1989 yildagi 38.4% ga tushib qoldi), ammo bu tarmoqda ishlovchilarning mutloq soni ham oshib bormoqda. Qishloq xo'jaligida ham xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlaridagi singari fan - texnikaning yutuqlaridan foydalanib, ishlab chiqarishning barcha jarayonlarini to'la mexanizatsiyalashga katta ahamiyat berilmoqda. Bu esa shubhasiz, hozir shu tarmoqda band bo'lgan aholining bir qismidan kelajakda xalq, xo'jaligining boshqa tarmoqlarida foydalanish imkonini beradi. Shu munosabat bilan qishloq yoshlarini sanoat mehnatiga tayyorlash, agrar sanoat majmualari va birlashmalarini ko'plab tashkil etish, malakali ishchi kadrlar tayyorlaydigan o'quv yurtlarini bevosita qishloqlarning o'zida ochish yuzasidan ishlar qilinmoqda.

Respublikamizda mehnat resurslaridan to'la va samarali foydalanish bo'yicha qator vazifalar bor. Ularning muhimlaridan biri O'zbekiston aholisining o'sish sur'atlar yuqori darajada saqlanishi munosabati bilan mehnat yoshiga to'ladigan yoshlar ish joylari bilan to'la ta'minlanish uchun sanoat va qishloq xo'jaligining sermehnat tarmoqlarini yanada yuqoriroq sur'atlar bilan rivojlantirishdir.

Mehnat resurslari va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish korxonalarda mehnat ishlarini ko'paytirish ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, mehnat resurslari bilan boy bo'lgan O'zbekistonda qo'llash juda qulay.

Respublikada qo'l mehnatining salmog'i muhim o'rin tutadi. Bu asa ish unumdorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston sanoatida mehnat qilayotgan ishchilarning malakasi nisbatan past. Bunday xollarda mashinasozlik, engil, oziq-ovqat sanoatlarida sezilarlidir. Bizda o'rta maxsus ma'lumotli sanoat kadrlari etishmaydi. uning uchun kasb-hunar kollejlarida mahalliy yoshlardan malakali kadrlar tayyorlash dolzarb vazifalardandir.

Respublikada agrar sanoat birlashmalarini yanada rivojlan-tirish bilan birga yordamchi va qo'shimcha tarmoqlarni vujudga keltirish, qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtirmaydigan joylarda ularni sanoat yo'li bilan qayta ishlashni yo'lga qo'yish, shubhasiz, hozir qishloq xo'jaligida band bo'lgan mehnat resurslaridan samaraliroq foydalarish imkonini beradi.

Respublikada yoshlarni xizmat doirasiga ko'plab jalb qilish, bu tarmoq uchun oliy va o'rta mahsus o'quv yurtlarida malakali kadrlar tayyorlash ishiga e'tiborni qaratish kerak. Mehnat resurslari bilan ta'minlanish va ulardan foydalanish darajasiga binoan Respublika viloyatlariga ko'ra bir - biridan farq qiladi va buni 3 guruhga ajratadilar:

1- guruh. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy, Sirdaryo, Jizzax, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridir.

- guruh. Andijon, Namangan, Farg'ona va Xorazm viloyatlari.

- guruh. Toshkent shahri, Toshkent va Samarqand viloyatlari.

Birinchi guruh viloyatlari O'zbekiston xududining juda katta qismini (86%) egallab, uning katta maydonlari xo'jalik maqsadlarida ham kam o'zlashtirilgan. Bu viloyatlar va Qoraqalpogiston Respublikasida juda katta zaxiralar bo'lib, ularni sanoat va qishloq xo'jalik maqsadlarida o'zlashtirish istiqboli katta.

Ikkinchi guruhga viloyatlar aholisi juda zich joylashgan. Bu guruhda ishchi kuchi ko'p bo'lib, o'zlashtirilagtgan joylarga olib borib foydalanish mumkin.

Uchinchi guruh viloyatlar va poytaxt - Toshkent shahri sanoat yaxshi rivojlangan mintaqaga bo'lib, mehnat resurslariga bo'lgan talabni o'zida bo'lgan aholi tabiiy o'sishi orqali taqsimlash mumkin. Yangi o'zini - o'zi ta'minlaydigan ishchi kuchi bilan.

XALQ TA'LIMI

Mustaqillik elga, yurtga o'zligini, imonu e'tiqodini qaytarib berdi. Vatan mustaqillik tufayli o'z taqdirini o'z qo'liga oldi. Shu nuqtai nazardan qaraganda Andijon viloyati xalq ta'limi o'z tarixiga ega, albatta. Zeroki, Andijonda jadidchilik harakati alohida ahamiyat kasb etadi.

Jadidchilik — davlat tizimi boshqaruvini isloh qilish va millatni rivojlantirish orqali jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishni maqsad qilib qo'ygan g'oyalar va amaliy aniq tadbirlarni o'zida mujassamlashtirgan tizim ekanligi bugungi kunda barchaga ayon.

Abdurauf Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashid-xonov, Asadulla Xo'jaev, Fayzulla Xo'jaevlarning bu sohada olib borgan ishlari alohida ahamiyatga ega.

AQShning AKSELS tashkiloti tomonidan o'tkazilayotgan tanlovning 2-bosqichida muvaffaqiyatli qatnashib, g'olib bo'ldi va 3-bosqichda ishtirok etish xuquqini qo'lga kiritdi.

Mustaqillikka erishilgan kundan boshlab ta'lim sifatini jahon andozalari darajasiga ko'tarish, uning samaradorligini oshirishga, pedagog xodimlarni ijtimoiy himoyalash va ularning kasb-malakalarini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenta I.Karimovning farmoni bilan 1 oktyabrni "O'qituvchilar va murabbiylar kuni" umumxalq bayrami deb e'lon qilinishi ta'limga bo'lgan yuksak e'tibor va hurmat deb qabul qilindi. 1997 yil 1 oktyabr kuni viloyatning barcha shahar va tuman Xalq ta'limi bo'limlarida mahalliy hokimliklar vakillari ishtirokida bayram kechalari o'tkazildi.

Ta'lim-tarbiya soxasida samarali mehnat qilgan bir guruh ilg'or xalq ta'limi xodimlari tuman, viloyat hokimliklarining mukofotlari bilan taqdirlandilar. Pedagogik faoliyatida alohida yutuqlarga erishgan pedagog xodimlar esa Davlat mukofotlariga sazovor bo'ldilar.

1996-1997 yillarda viloyat xalq ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi ta'lim muassasalarining 64 nafari Davlat mukofotlari bilan taqdirlandilar.

Ma'lumki, ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish ko'p jihatdan oliygohlar va ilmiy tekshirish institutlari-ga taalluqli. Shuning uchun VPXMOI, Andijon Davlat Universiteta va Andijon tillar instituta pedagog va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish borasida hamkorlikda ish olib bormokdalar. -

Andijon viloyati pedagog xodimlar malakasini oshirish institutining faoliyati viloyat Hokimligi, viloyat xalq ta'limi boshqarmasi va bir qator boshqa rahbar tashkilotlarning ko'rsatmasi, yaqindan bergan amaliy yordami tufayli 1997—2000 yillarda sifat va samarasi jihat-dan tubdan o'zgardi.

Institut faoliyati Respublika Xalq ta'limi Vazirligi, Viloyat Hokimligi, VXTB va VPXMOI rahbariyati, pedagogik jamoasi tomoni-dan chuqur ta'hlil qilindi va uni yangi tizimga o'tkazishga qaror qilindi.

1997—1998 o'quv yilidan boshlab institutda 4 ta prorektor, 3 ta kafedra, 21 ta bo'lim, shuningdek kadrlar bo'limi, o'quv bo'limi, yangi pedagogik texnologiyalar Markazi, maktabgacha ta'lim va umumta'lim monitoringa Markazlari faoliyat ko'rsatmoqda. VPXMOI da va maktablarda ishdan ajralmagan holda M.Abdurasulova (Shahrixon sh.), A.Mo'minov (Baliqchi tuman), O.Shamsiddinova (Jalolquduq tuman), B.Qo'ldoshev (VPXMOI), M. Abdullaeva (VPXMOI) lar ilmiy izlanishlar olib bo-rayotgan bo'lsalar, Sh.To'ychiev, Sh.Yusupovalar nomzodlik dissertatsiyasi-ni muvaffaqiyatli himoya qildilar. Ikki nafar fan doktori, professor, 12 nafar fan nomzodi va 5 nafar dotsentlar institutga qabul qili-nib, malaka oshirish kurslari mashg'ulotlariga jal b qilindilar, tinglovchilar uchun mashg'ulotlar sifati yuqori darajaga ko'tarildi.

1997—2000 yillar davomida institut "Ta'lim to'g'risida" gi qonunlar asosida ta'lim-tarbiyaning barqaror hamda zamon talablariga moe tizimini vujudga keltirish, pedagog xodimlarga yangi axborot va pedagogik texnologiyalar asosida yangi shakl hamda mazmundagi kasbiy malaka berish kabi dolzarb ishlarni amalga oshirmoqdalar. Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 16 avgust 390-sonli "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari" haqidagi qarorini bajarish maqsadida 2000—2001 o'quv yilida 7- sinf o'quvchilariga dars beradigan fan o'qituvchilariga yangi o'zbek alifbosini o'rgatish bo'yicha 36 soatli dastur asosida qayta tayyorlov kurslari o'tkazilib, ularga 10433 nafar o'qituvchi jal b qilindi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida davom etayotgan barcha islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Jumladan, 1999—2000 o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarining o'quv dasturlari bilan birgalikda bosqichma-bosqich joriy etilishi, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga o'tish yuqoridagi fikrning isbotidir.

Mustaqillik yillarida ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, ayniqsa, ilgor pedagogik texnologiya va tajribalarni aniqlash va ommalashtirish, iqtidorli, qobiliyatli yoshlar bilan ishlash, ularning qiziqishlarini e'tiborga olib, tabaqalashtirib o'qitishga e'tibor kuchayti-rildi. Viloyat bo'yicha matematika fanidan 175 ta sinfda 4509, kimyo fanidan 26 ta sinfda 703, fizika fanidan 26 ta sinfda 670, ingliz tilidan 146 ta sinfda 3980, rus-tilidan 30 ta sinfda 799, hind tilidan 21 ta sinfda 688, fors tilidan 16 ta sinfda 503 nafar iqtidorli yoshlar o'zlari yoqtirgan fanlarni chuqurlashtirilgan dastur asosida mu-kammal o'rgandilar.

Prezidentimiz I.Karimovning 1998 yil 1 iyulda Respublika fanlar Akademiyasi rahbariyati, bir guruh tarixchi olimlar, matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari bilan o'tkazgan davra suhbatida tarix ta'limining hozirgi ahvoli kun talablaridan orqada qolayotganligi, bu predmetni o'qitish ishini, uning metodikasini tubdan yangilashni, xususan, o'zbek davlatchiligi tarixini o'quvchilar, talabalar va keng jamoatchilikka yanada chuqurrok o'rgatish lozimligi haqida qimmatli maslahatlar bergan edi. Bu vazifalarni bajarish maqsadida viloyatdagi 20 ta maktabda tarix fani

bo'yicha chuqurlashtirilgan sinflar tashkil qilingan bo'lib, ularda 540 nafar yoshlar Vatanimiz va davlatchiligimiz tarixi, qadriyatlar, urf-odatlarimizni mukammal o'rganmoqdalar.

Paxtaobod tumanidagi 2-maktab, Baliqchi tumanidagi 44-maktablar bu sohada tajriba-tayanch maktablari etib belgilandi. 1999 yil Respublika fan olimpiadalarida Andijon viloyati vakillari birmuncha ijobiy natijaga erishdilar. Natijada Andijondan 1998 yil 2 qatnashchi g'olib bo'lib, 11-o'rinni egallagan bo'lsa, 1999 yilda 4 nafar o'quvchilarimiz g'olib bo'lish-di va Andijon viloyati 7-o'ringa ko'tarildi. Bunda Marhamat tumani va Andijon shahri qatnashchilarining ishtiroki maqgovga loyiqdir.

Andijonlik o'quvchilar fanlar bo'yicha o'tkazilayotgan sirtqi televi-zion olimpiadalarda ham faol ishtirok etmoqdalar. 1997—98-o'quv yi-lida Shahrixondagi 2-litseydan 4 nafar, Baliqchi tumanidagi 5-gimna-ziyadan 3 nafar o'quvchi sirtqi televizion olimpiadalarning respublika bosqichida ishtirok etgan bo'lsa, 1998—1999 o'quv yilida Shahrixondagi 2-litseyning 11 nafar o'quvchisi kimyo va biologiyadan, Qo'rg'ontepa tumanidagi ta'lim qirg'iz tilida olib boriladigan 30-litseyning 6 nafar o'quvchisi iqtisod, Baliqchi tumanidagi 5-gimnaziyaning 3 nafar o'quvchisi fizika fanidan g'olib deb topildi va bu o'quvchilarning bar-chasi yakunlovchi Respublika bosqichiga taklif qilindi. Jami 21 nafar qatnashchidan 12 nafari imtiyozli sertifikat bilan qaytdilar.

Viloyatda xorijiy tillarning o'qitilishiga alohida e'tibor berilmoqda. AQShning AKSELS tashkiloti tomonidan yuqori sinf o'quvchi-lari o'rtasida o'tkazilgan tanlovda viloyatimizning 700 dan ortiq o'quvchilari qatnashdilar. Ulardan 4 nafari til o'rganish uchun AQShga bo-rish huquqini qulga kiritdi.

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan 32 ta litsey, 24 ta gimnaziya 15140 nafar iqtidorli o'quvchilar bilim olmoqdalar. 1998—99-o'quv yilida 11-sinfni 1244 nafar o'quvchi tamomladi. Bitiruvchilarning 887 nafari oliy o'quv yurtlariga, 93 nafari o'rta maxsus o'quv yurtlariga yoki bitiruvchilarning 82 foizi o'qishga kirdilar. Bu ko'rsatkich bo'yicha viloyatimiz respublikada Toshkent shahridan keyin 2-o'rinni egalladi.

Viloyat xalq ta'limi boshqarmasi "Jismoniy tarbiya va sport Markazi" "Yoshlik" ko'ngilli sport jamiyati bilan hamkorlikda jismoniy tarbiya darslarining o'qitilishi, bolalar va o'smirlar sport maktabla-rida o'quv mashgulotlarining o'tkazilishi sifatini yaxshilash, Respublika va xalqaro musobaqalarda ishtirok etish, sport turlari safiga ishtirokchi etkazib berishda ijobiy ishlarni amalga oshirmoqda.

50 ta BUSMlardagi sport guruhlarida 24391 nafar o'quvchilar sport-ning 30 turi bo'yicha 557 nafar murabbiylar rahbarligida muntazam shug'ullanmoqtsalar.

Viloyatimiz maktablarida 4 ta stadion, 427 ta sportzal, 2 ta suzish havzasi, 381 ta otish tiri, 621 ta basketbol, 743 ta voleybol, 298 ta qo'l to'pi, 487 ta futbol, 172 ta kichkina futbol maydonlari, 10 ta tennis korti mavjuddir.

1998—99 - o'quv yilida yuqori razryadli sportchilarni tayyorlashga alo-hida e'tibor berilib, 2 ta sport ustasi, 73 ta sport ustaligiga nomzod, 117 ta 1-darajali, 48001 nafar ommaviy darajadagi sportchilar tayyorlandi.

Xalqaro musobaqa va turnirlarda 90 dan ortiq andijonlik o'quvchi-lar mustaqil O'zbekiston sharafiga himoya qilmoqdalar.

Andijon viloyat xalq ta'limi boshqarmasi "Ta'lim to'grisida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da belgilangan vazifa-larga asosan xalqaro aloqalarni mustahkamlash borasida muayyan ishlarni amalga oshirmoqda.

Jumladan, AQShning AKSELS tashkiloti bilan iqtidorli o'quv-chilarni aniqyaash va Amerikaga 1 yilga o'qipgga yuborish sohasida mus-tahkam hamkorlik aloqalari o'rnatilgan. 1993—1999 yillar davomida 25 nafar o'quvchilar ingliz tili bo'yicha olgan bilimlarini AQShda mustahkamlab qaytdilar. 2000 yilda ham 3 nafar yoshlar tanlov g'olibla-ri sifatida AQShda bilim oldilar.

Shuningdek, keyingi 3 yil davomida iqtidorli o'qituvchilar bilan ishlash, ularning malakasini oshirish, Amerika ta'lim muassasalarida ishlashga yuborish va nufuzli oliy o'quv yurtlarida malaka oshirish bo'yicha hamkorlik ishlari samarali natijalar bermoqda. 1998 yilda Buloqbo-shidagi 10-maxsus maktab internata o'qituvchisi M.Abdullaeva, 31-li-tsey ingliz tili o'qituvchisi M.Io'lchievalar AQShda malaka oshirib qayt-dilar hamda o'zlari faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim muassasalari uchun shax-siy kompyuterga ega bo'ldilar.

AQShning Tinchlik Korpusi bilan "Ingliz tilini o'qitishni ta-komillashtirish" sohasida ham hamkorlik mustahkamlanib bormoqtsa. 1994 yildan beri viloyatimizda Tinchlik Korpusining 19 nafar ko'ngil-lilari ta'lim muassasalariga ingliz tilini o'qitish bo'yicha amaliy yordam berdilar. Ular, ayniqsa, Andijon shahridagi 1, Asaka shaxridagi 9, Baliqchi tumanidagi 5-gimnaziya va Til markazlarida samarali meh-nat qildilar.

2000—2001 o'quv yilida Asaka shahridagi 9-gimnaziyada "Boshlang'ich sinflarda ingliz tili" dasturi tajriba sinovdan o'tkazilmoqda.

Xalqaro "Yunesko" tashkiloti mustaqillik sharofati bilan Izboskan tumanidagi 12-maktabga moddiy-texnik ta'minotini yaxshilash, kompyuter sinfi, yangi zamonaviy o'quv dasturlari bilan ta'minlashda ama-liy yordam bermoqtsa.

Ochiqjamiyat instituti "Soros jamg'armasi" bilan huquqiy va iqtisodiy ta'limni takomillashtirish, darslik va o'quv qo'llanmalari tayyorlash sohasida hamkorlik qilinmoqda. Ochiq jamiyat instituti tomonidan tashkil etilgan o'quvlarda faol ishtirok etgan Andijon shahri-dagi 27-maktab tarix o'qituvchisi O.Omonova "Davlat va huquq asoslari" fani bo'yicha darslik yaratdi.

Frantsiya elchixonasi va til o'rganish bo'limi bilan Buloqboshi, Iz-boskan tumanlari va Andijon shahridagi ta'lim muassasalari samarali hamkorlik qilmoqdalar. Oxirgi 2 yil ichida 3 nafar

pedagoglarimiz Frantsiyada bo'lib, nufuzli oliygohlarda malaka oshirib qaytdilar. Shu-ningdek, Germaniya elchixonasining Ta'lim bo'limi va Gyote instituti bilan hamkorlik ijobiy samara bermoqda. Nemis tilini o'qitish va darslik tayyorlash, o'qituvchilar malakasini oshirish bo'yicha ijobiy ishlar qilinmoqda. 7-ixtisoslashtirilgan maktab-internat o'qituvchisi Munisxon Muxtorova O'zbekistondagi Germaniya madaniyat markazi-ning Gyote instituti tomonidan tashkil qilinayotgan doimiy harakatda-gi seminarlarga muntazam qatnashmoqta. 1998 yili 2 nafar o'qituvchilari-rimiz Germaniyada malaka oshirib qaytdilar va bugungi kunda samarali mehnat qilmoqdalar.

Keyingi 3 yil ichida viloyatimizda "Kafe" tashkilotining faoliyati sezilarli darajada bo'lmoqda. Oxirgi 2 yil ichida 8 nafar ingliz tili o'qituvchilari AQShning Xyuston universitetida malaka oshirib, o'z bilimlarini mustahkamlab qaytdilar.

Shuningdek, "O'zbat" O'zbekiston Amerika Britaniya qo'shma korxonasi bilan o'quvchilar o'rtasida sog'lom turmush tarzini tashkil etish "Chekmasdan yoshlik gashtini sur" dasturlari bo'yicha amalga oshirilmoqta.

Osiyo rivojlanish banki bilan hamkorlikda "Masofadan o'qitish" (Masofadan malaka oshirish) tizimini joriy qilish maqsadida. viloyatdagi 5 ta maktabda "O'quv resurslari Markazi" tashkil etish rejalash-tirildi. Mazkur maktablarda 2 ta xona kompyuter sinflari, 1 ta xona lingafonli sinf uchun jihozlanishi mo'ljallangan.

AQSh ning O'zbekiston Respublikasi bilan ta'lim sohasidagi hamkorligi, ayniqsa mustahkamlanib bormoqda. AKSELS tashkilotining "Iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va Amerika oilalariga 1 yilga yuborish" soxasi direktori Erik Blender bilan boshqarmaning samimiy do'stona aloqalari o'rnatilgan, Erik Blender bu haqda shunday deydi: "Bu yil AKSELS konkursida Andijon viloyatidan ko'p o'quvchilar qat-nashdi. Bu mustahkam hamkorlik va Sizlarning sa'y harakatlaringiz natijasidir. Men Sizlar bilan tanishganimdan juda xursandman va yangi 2000 yidda yangi uchrashuvlarni kutib qolaman. Sizlarga 2000 yil-da baxt va muvaffaqiyatlar g'amroh bo'lsin. Yangi yil bilan!"

Shuningdek, Markazii Osiyoga Beg'araz Yordam tashkilotining Andijon bo'limi (Andijon Taraqqiyot Markazi) quyidagicha fikr bildirgan:

"Andijon Taraqqiyot Markazi Andijon shahrida besh yildan buen faoliyat ko'rsatmoqda. Bizning viloyatla olib borayotgan barcha ishlarimiz Andijon axdi bilan hamkorlikda qilinayotganligidan xursandmiz.

Bizning olib borayotgan faoliyatimiz yuzasidan taklif va mulohaza-laringizni mamnuniyat bilan qabul qilamiz. Biz Siz bilan hamkorlik qilganimizdan xursandmiz".

Yuksak ehtirom bilan direktor **TED ELDER** 17 iyul 2000 yil.

Andijon viloyati xalqta'limi vakillari, Istiklol sizga nima berdi, deb berilgan savolga quyidagi mazmunda javob berdilar:

"Mustaqillik, eng avvalo, biz o'qituvchilarga cheksiz imkoniylar yo'lini ochib berdi. Jumladan, o'zligimizni anglash, uning butun zalvori bilan urf-odatlarimiz, xususiyatlarimiz, yashash tarzimizga solishtirish imkoniyatini berdi. Milliy tariximiz tiklanib, umumba-shariyat qadriyatlariga munosib hissa qo'shish, ajdodlarimiz merosini yosh avloda etkazish va uni boyitish imkoniyatini yaratdi. Istiklol tufayli ta'lim mazmunidagi o'zgarishlar iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy-mafkuraviy hamda odob-axloqqa oid bilimlarni mukammal egallash imkoniyatlarini yaratdi.

Istiklol tufayli men "Xalq o'qituvchisi" unvoniga ega bo'ldim. Meni ruxlantiradigan voqea 1996 yili 6 dekabrda sodir bo'ldi. "Xalq o'qituvchisi" unvoni hujjatini yurtboshimiz Islom Karimovning tpaxsan o'z qo'lidan olish juda quvonchli va umrbod esda keladigan voqea deb bilaman".

Prezidentimiz olib borayotgan tinchliksevar siyosat tufayli yuz berayotgan yangilanishlar xalqning ruhiyatini, dunyoqarashini va mehnatga munosabatini tubdan o'zgartirdi. g'amo'a sohada bo'lganidek, ta'lim tizimidagi o'zgarishlar ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni avaylab yoshlar ongiga etkazish imkoniyati berdi. Ona tilimizga Davlat tili maqomining berilishi esa mustaqillik bergan ulug' ne'matdir".

YULDUZXON YORQULOVA,

Oltinko'l tumanidagi 1-maktab, ona tili va adabiyot o'qituvchisi.

"Istiklol sharofati tufayli ko'plab iqtidorli uzbek yoshlarining dunyoning turli qit'alaridagi nufuzli oliy uquv yurtlarida tag'sil olishlari oddiy bir qoldek hech kimni ajablantirmay qoldi. Yurtimiz-ga xorijiy mehmonlarning kelishi, turli jabhalarda hamkorlik qili-shi oddiy tushib oldi. Ana shunday baxt mendek bir oddiy maktab o'qituvchisiga g'am nasib etganidan quvonaman va davlatimiz rag'barlariga chin dildan minnatdorchilik bildiraman.

Uzbekistan mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardayoq men ingliz tili o'qituvchisi sifatida oldimizda turgan uta muhim, sharaflil va mas'uliyatli vazifani tushupib etgan edim. 1996 yili "Uzbekistan ingliz tili o'qituvchilari" assotsiatsiyasiga a'zo bo'lishim pedagogik faoliyatimda yangi bir burilish yasadi. Men O'z TEA, Ochiq jamiyatlar instituti va Tinchlik Korpusi tomonidan tashkil etilgan seminarlarda bir necha marotaba ishtirok etdim va jahon tan olgan til urgatisht usullarini dardeda qanday qo'llash yo'llarini o'rgandim. 1998 yil Uzbekistan XTV va Amerikaning AKSELS tashkiloti bilan hamkorlikda Amerika elchixonasi va Amerika axborot xizmati homiyligida "Uqitishda a'lo-chilik" dasturi bo'yicha maktab o'qituvchilari o'rtasida uch bosqichda tan-lov o'tkazildi. G'oliblardai biri sifatida AQShda bo'lish mening hayotim-da juda katta o'zgarishlar yasadi. Tili o'rganilayotgan davlatning o'zida bo'lish, ta'lim tizimi bilan tanishish juda muhim edi. Axir o'qigan boshqa, ko'z bilan ko'rgan boshqa. Men AQSh dan juda katta taassurotlar bilan kaytdim. So'ng o'z ish faoliyatimda o'sha joyda o'rgangan usullar va adabiyotlarlan foydalana boshladim. AQSh g'ukumatining AKSELS tashkiloti meni 2000 dollarlik shaxsiy

kompyuter, modem bilan va 200 dollarlik o'quv adabiyotlari bilan mukofotladi. Shu kunlarda "O'rta maktablarda tajriba almashish" yangi dasturi tanlovida qatnashish uchun o'z loyihamizni tayyorlamoqdamiz.

Bundan tashqari Buyuk Britaniya davlatining Britaniya Kengashi bilan ham mustahkam aloqa o'rnatganman. 2000 yil may oyining oxiri va iyun oyining boshlarida Britaniya Kengashi va XTV hamkorlikda Osiyo Rivojlaiish banki homiyligila "Samarali ta'lim nima va zamonaviy darslik qanday bo'lishi kerak?" mavzusila xalqaro konferentsiya o'tka-zildi. Bir haftalik umumiy seminardan so'ng chet ellik ekspertlar va maslahatchilar yangi darslik yaratuvchi mualliflarni XTV vakillari bilan birgalikda saralab oldilar. Men ham ingliz tili dareligini yaratuvchi mualliflardan biri bo'lib tanlandim va hozirgi kunda ol-tinchi sinf darsligini yozib tugatayotibman. Allohga shukurlar bo'lsin-kim, mustaqillik mana menga nimalar berdi" (Abdullaeva Maxpirat-xon, Buloqboshi tumanidagi 10- ixtisoslashgan maktab-internat ingliz tili o'qituvchisi).

Andijon viloyatida mustaqillik yillarida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari ishi tubdan qayta ko'rildi. Hozir viloyatda 3 ta akadem litseylar, 28 ta kasb-hunar kollejlari ishlab turibdi.

Ushbu akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlari asosan 1998— 2000 yillarda tashkil topdi. Masalan, 1998 yilda 2 ta kasb-hunar kolleji ish boshlagan bo'lsa, 1999 yilda 12 ta, 2000 yilda esa 14 ta kasb-hunar kollejlari qurib bitkazildi va ishga tushirildi. Mavjud 3 ta akademik litseylarda mehnatkashlarning 834 nafar, 28 ta kasb-hunar kollejlari esa 7368 nafar farzandlari ta'lim olmoqdalar. Bu o'quv maskanlari o'z kutubxona fondlariga egadirlar. Akademik litsey kutub-xona fondida hozir 194 nomda 20365 nusxada darslik va adabiyotlar bor. 28 ta kasb-xunar kollejlari kutubxona fondida esa 5013 nomda 287483 nusxa darslik va adabiyotlar jamlangan.

Shuningdek, viloyatda 15 ta texnikum, 25 ta kasb-hunar bilim yurt-lari ishlab turibdi. Texnikumlarda 15547 nafar, kasb-hunar bilim yurtlarida 14059 nafar talabalar bilim olmokdalar. Texnikumlarning kutubxonalar fondida 3540 nomda 313248 nusxa kitob, kasb-hunar bilim yurtlari kutubxonalari fondida esa 4298 nomda 393379 nusxa kitob bor. Bu kitoblar umumta'lim fanlari, mutaxassislik fanlari, ijti-moiy-siyosiy o'quv adabiyotlari va badiiy adabiyotlardir.

O'rta maxsus va kasb-xunar ta'limi muassasalarini yuqori malakali o'qituvchilar bilan ta'minlash ishlariga alohida e'tibor berilmoqda. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari 1230 nafar o'qituvchi yosh-larga hozirgi talab darajasida dare bermokdalar. Bularning 305 nafari oliy toifali, 365 nafari 1-toifali, 165 nafari 2-toifali o'qituvchi-lardir. O'qituvchilarning 1221 nafari oliy ma'lumotli, 43 nafari done ntl ar, 3 nafari esa professorlardir.

O'rta maxsus o'quv yurtlari hamda kasb-hunar bilim yurtlarini ham yuqori malakali o'qituvchilar bilan ta'minlashga alohida e'tibor be-rilmoqda. Bu bilim maskanlarida ishlayotgan 1418 nafar o'qituvchining 308 nafari oliy toifali, 479 nafari 1-toifali mutaxassislar bo'lib, 1353

nafari oliy ma'lumotlilardir. Bu erda ham 13 nafar dotsent unvo-niga ega bo'lgan olimlar murabbiylik qiladilar.

Andijon oliy o'quv yurtlari shahri bo'lib qoldi. Hozir 6 ta institut ishlab turibdi. Bundan tashqari, kollejlari, akademik litseylar soni yildan yilga ortib bormoqda. O'nlab o'rta maxsus o'quv yurtlari, hunar texnika bilim yurtlari mavjud. 2500 ga yaqin olim, fan doktori va professorlar yoshlarga ilm sirlarini o'rgatmoqdalar.

Andijonda 1931 yili o'qituvchilar instituti tashkil topdi. 1953 yili u pedagogika institutiga aylandi. Hozir Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon Davlat universitetida 16 ixtisoslik bo'yicha mutaxassislar tayyorlanmoqda. 25 nafar fan doktori va professorlar, 120 dan ortiq fan nomzodlari mehnat qilmoqdalar. Universitetda 8 millat vakillaridan iborat 2500 talaba o'qimoqda.

Universitetda "O'zbekiston tarixi", "Yarim o'tkazgichlar dielektrik-lar fizikasi" fanlaridan nomzodlik dissertatsiyalari yoqlash ixtisos-lashgan kengashi ishlab turibdi. 16 ta yo'nalishda 2 yillik magistr-lar tayyorlanadi. 5 ta yo'nalishda aspirantura ochilgan. Universitet qoshida 2 ta akademitsey ishga tushdi.

1955 yili Andijon tibbiyot instituti ochilgan. Bu ilm dargohida 680 nafar professor-o'qituvchi, 60 ga yaqin professor va fan doktori, 300 dan ortiq dotsent bo'lajak shifokorlarga tibbiyot ilmidan dare ber-moqda. Hozirgi kunda Farg'ona vodiysida xalqqa xizmat qilayotgan tibbiyot xodimlarining 90 foizdan ortig'i mana shu institutda ta'lim ol-gan mutaxassislardir. Institutning o'quv bazasi sifatida zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan katta klinika ishlab turibdi.

1964 yili Andijon paxtachilik instituti ochildi. Bu institut Far-g'ona vodiysining yirik qon tomiri bo'lgan Qoradaryoning o'ng sohili-da, katta Farg'ona kanali bosh to'g'oni qurilgan so'lim Kuyganyor posyol-kasida joylashgan. Foydali o'quv maydoni 26,6 ming kvadrat metr bo'lgan zamonaviy o'quv binolari hamda 30 ming kvadrat metr maydonga ega bo'lgan talabalar uchun yotoqxona qurilgan. Bu institutda 220 dan ortiq profes-sor-o'qituvchilar xalq xo'jaligi uchun 10 ga yaqin ixtisoslik bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlamoqdalar.

1966 yilning avgust oyida Andijon Davlat tillar pedagogika instituti ochilgan edi. Hozir bu ilm maskanida 200 dan ortiq professor-o'qituvchilar yoshlarga ustozlik qilmoqdalar. Bu institutning kutubxo-nasi O'zbekistondagi eng yaxshi kitob xazinalaridan biri hisoblanadi. Uning kitob fondida 202800 nusxa o'quv, ilmiy va badiiy adabiyot bor.

1976 yili Toshkent Xalq xo'jaligi institutining Andijon filia-li ochildi. Bu ilm dargohida 8 mutaxassislik bo'yicha 2 mingdan ziyod talabalar o'qitiladi.

1981 yili Toshkent to'qimachilik va engil sanoat institutining Andijon filiali ish boshladi. 1990—1991 o'quv yilidan boshlab u O'zbe-kiston Respublikasi va O'rta Osiyo mintaqasi aholisiga maishiy xizmat ko'rsatish mutaxassislari tayyorlaydigan oliy o'quv yurtiga aylandi. Bu institut yangi, zamonaviy o'quv binosi hamda 400 o'rinli talabalar yotoq-xonasiga ega.

1995 yilning may oyidan ikkala institut filiallari negizvda Andijon Davlat iqtisodiyot-muhandislik instituti tashkil topdi. Hozirda bu erda 3 mingga yaqin talaba tahsil olmoqda.

SOG'LIQNI SAQLASH

Mustaqillik sog'liqni saklash tizimida ham katta islohotlarni amalga oshirishga imkon berdi .

Mustakillikning ilk padlasida shaxsan Prezidentimiz tashabbusi bilan Respublika fuqarolariga tibbiy erlam ko'rsatish, sanitariya-profilaktika xizmatini kuchaytirish, sifat va samaradorligini oshirish, ay-niqsa, tug'ish yoshidagi, homilador aellar va bolalar hayotini muhofazalash masalalarini ustuvor bilib, qator farmon va qarorlar qabul qilindi.

Mustakillikning lastlabki pallasida sog'liqni saqlash tizimila islohotlar o'tkazishning uzoq mudlatga mo'ljallangap lasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirishni hayot taqozo etdi. Andijon viloyatila to'xtab qolgan tibbiy muassasalar qurilishini tugallash va zamonaviy tibbiy asboblar bilan ta'minlashga alohida e'tibor bsrildi. Andijon shaqrida 5-sonli poliklinika binosi, viloyat stomatologiya polikli-nikasi, 2-son shahar shifoxonasi, Paxtaobod, Qo'rg'ontepa, Bo'z va Bu-loqboshi tuman poliklinikalari. Izboskan va Andijon tuman SES binolari bitkazilib foydalanishga topshirildi.

Viloyat sanitariya aviatsiya xizmati uchun 8 ta GAZ-31, tuman va sha-g'arlarda jami 27 ta GAZ-31 sanitariya avtomashinasi, 129 tadan ortiq "DAMAS" sanitariya avtomashinalari sotib olinli.

1996 yilda Bo'z tumanila butun Jahon Sog'liqni Saklash tashkilo-tiga qarashli "SARAK" dasturi asosida ish olib borilli. Shu maqsadda Italiyadan 23 xil tibbiy asbob va jihozlar keltirildi.

Andijon shahridagi 3-tug'ruq kompleksi. 1-son bolalar shifoxonasi, 7-son poliklinikalariga Yaponiya granti buyicha 144 turdagi zamonaviy apparatlar o'rnatildi.

Ilgari byudjetdan tarmoq uchun mablag' ajratishda, avvalo, davlat muassasalaridagi bemor o'rinlari asosiy ko'rsatkich hisoblanar edi. Shu boisdan butun e'tibor qanday bo'lmasin bemorlar yotib davolanadigan o'rinlarni ko'paytirishga qaratilardi. Bunday yondashish tibbiyotning birinchi zvenosi—tibbiy sanitariya yordami, ambulatoriya poliklinika xizmatini nochor ahvolga tushirib quygan edi.

Mustaqillik yillarida sog'liqni saqlash tizimini ekstensiv rivoj-lantirish yo'lidani voz kechib, uzil-kssil intensiv takomillashtirish yuliga o'tildi. Ya'ni bemorlarga yordam ko'rsatishda shifo o'rinlari va tibbiyot xo-dimlari soniga emas, bemorlarga yaratilgan sharoitlar va ko'rsatilgan tibbiy yordamning sifati va samaradorligiga ahamiyat bsrilmoqda.

Kamquvvat va samarasiz bemor o'rinlari soni (1991 yil 22220 ta, 1995 yil 18393 ta. 1998 yil 14516 ta va bugungi kunda 14086 ta) kisqartirildi (har bir aholiga to'g'ri keladigan o'rinlar soni Shdan 6,1 ga tushirildi).

Bu o'z navbatida bemorlarning davolanish sharoitini yaxshiladi! im-konini berdi. O'n yil avval shifoxonalarda bir bemorga 2,5—3 kvadrat

Andijon viloyati xalq ta'limi tarixida jadidlar maktabi Pedago-gikasi namoyondalarining xizmatlari katta bo'lgan. Ayniqsa, Shahri-xon maorifining yangi bosqichdagi ravnaqida fidoyi muallim va ustoz Xo'jaxon Mansurzodaning xizmatlari alohida o'rin tutadi.

Xo'jaxon Mansurzoda qo'qonlik bo'lib, Degrezlik mahallasida yasha-gan. U diniy qonun-qoidalarini o'rganish bilan kifoyalanib qolmasdan, dunyoviy ilmlarni ham mukammal egallagan. Oraziy, Hayratiy, Fax-riylar bu davrda islohiy jadidlar maktablarini takomillashtirish hara-katida bo'lganlar, H.H.Niyoziyning topshirigi bilan Xo'jaxon Mansurzoda Shahrixonga yuborilgan.

1911 yili yangicha uslubdagi jadid maktabi ochilgan. Bu maktab ko'hna Asaka yo'lidagi Qayrag'ochguzar yaqinidagi mahallada tashkil etilgan.

1911 yilning 2-yarmida Namozgoh masjidi qoshida usuli savjiya maktabi ochilgan. 1914 yili "Saodat" kutubxonasi ochilgan. Shu yili Xo'ja-xon Mansurzoda Shahrixon xalq maorifi mutasaddisi etib tayinlandi. 1915 yilda Xo'jaxon Mansurzoda maktabida 80 nafar o'quvchi ta'lim olar-di. Bu maktabda Hamza Hakimzoda Niyoziy ham ma'lum muddat dare o'tgan.

Bu davrlarga kelib usuli savjiya maktablarining soni 4 taga etgan edi. 1923—24- yillarda ularning soni 5 tani tashkil etadi. 62 ta o'quv-chiga 7 o'qituvchi dare bergan.

Bunday maktablarning tashabbuskorlari Oraziy, Hayratiy bo'lgan bo'lsa-lar, Io'ddoshqori Mavlonov, Toshpo'lat Haydarov, Karim Rahimov, Mahbub Maqsudiy, Maqsud Nazariylar saboq berganlar. 1926 —27 - yillarda 37 ta o'qituvchi bo'lib, ulardan 3 nafari ayollar bo'lgan. 1927 yilda Shahrixonda-gi Ahmadohunboydan qolgan uyda pedagogik bilim yurti ochilgan.

1929—30-o'quv yilida bilim yurtini 47 nafar o'quvchi bitirgan.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, jadidlar maktabi asoschila-ri va namoyandalarining hayoti va ijodi, ularning asarlarini o'rga-nishga qiziqish hayotiy ehtiyojga aylanib bormoqda.

Abdulla Avloniy, Abduvahob Ibodiy, Mahmudxo'ja Behbudiylarning ta'lim-tarbiya sohasidagi faoliyatlarini o'qib-o'rganish, ayrim asarlar-ning (M.Behbudiy. "Padarkush") o'quv dasturlariga kiritilishi yoshlar tarbiyasi va mafkurasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi tabiiy holdir.

Darhaqiqat, mustaqillik tufayli necha yillar davomida bir-biri-dan uzilib qolgan ikki qirg'oq — moziy va bugungi kunimiz o'rtasida-gi ma'naviyat va ma'rifat deb atalmish oltin ko'priklar barpo etildi. U bizga o'zimizning ko'p asrlik an'analarimizni davom ettirish, ma'na-viy boyligimizga qaytadan erishishga imkon yaratdi.

Bugun Andijon xalq ta'limi xodimlari ham kuch-quvvat va mustah-kam iroda bilan kelajak poydevorini qurayotgan zamondoshlarimiz bilan g'ururlangan holda O'zbekistonimizning ertangi yorug' kelajagini ta'minlovchi yosh avlodga bilim sirlarini o'rgatish yo'lida jur'at kama-rini mahkam bog'lab, barakali mehnat qilmoqdalar.

Mustaqillikning dastlabki yilidan boshlab respublika Prezidenta I.Karimov xalq ta'limi sohasiga alohida e'tibor berdi.

Metr joy to'g'ri kelgan bo'lsa, butun bu raqam 8—10 kvadrat metrni tashkil etadi.

Tibbiyotga ajratilgan mablag'ning asosiy qismi (50%) ambulatoriya poliklinika sharoitida kasalliklarning oldini olish va bemorlarni davolash uchun sarf qilinmoqda.

Islom Abdug'anievich Karimov Andijondagi tez tibbiy yordam markazi shifokorlari bilan mulotsotda

Davolashning eng qulay va samarali usullaridan bo'lgan kunduzgi shifoxonalar tarmog'iga e'tibor qaratildi. 1996 yilda ambulatoriya po-liklinikasi qoshidagi shifo o'rinlari soni 1385 ta, davolanib chiq-qanlar 39500 ta, 2000 yilda shifo o'rinlari soni 1941 ta, davolanib chiqqanlar 90330 ta, 1996 yilda shifoxonadagi kunduzgi shifo o'rinlari soni 235 ta va unda davolanib chiqqanlar 26778 ta bo'lsa, 2000 yilda shifo o'rinlari soni 1551 ta bo'lib, davolanib chiqqanlar soni esa 41721 nafarni tashkil etdi. Ambulatoriya jarrohlik markazlari o'rinlari (1996 yilda 100 ta) 2000 yilda 58 tani tashkil etdi. Davolanib chiqqanlar 1996 yilda 30876 ta, 2000 yilda 11107 ta, SKAL markazlari o'rinlar soni 1996 yilda 108 ta, davolanib chiqqanlar 7679 ta, 2000 yilda 101 ta, davolanib chiqqanlar 7995 tani tashkil etdi.

Bemorlarni davolashda yanada qulaylik yaratish maqsadida uylarda shifoxonalar tashkil qilinmokda. Tibbiyotdagi yangi islohotlarni viloyat axoluey to'g'ri qabul qilib, uning xizmatlaridan unumli foydalanmokdalar.

1996 yil may oyida Vazirlar Mahkamasining "2000 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasi qishloq infrastrukturasini rivoj-lantirish to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi.

Ushbu qaror asosida qishloq tibbiy muassasalari faoliyatini takomillashtirish, ko'p bosqichli tibbiy yordam o'rniga ikki bosqichli, ya'ni qishloq vrachlik punkti hamda tuman markaziy shifoxonasi orqali xizmat ko'rsatish, bu tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini yaratish va ana shu muassasalarda ishlaydigan, amaliyotchi shifokorlar, oliy malakali o'rta tibbiyot xodimlari xizmatini yo'lga qo'yish borasi-da juda katta ishlar qilindi.

Viloyatda 1996 yilda 9 ta, 1997 yilda 21 ta, 1998—2000 yillarda 43 ta KVP yangidan qurilgan bo'lsa, 1996 yilda 22 ta, 1997 yilda 20 ta, 1998— 2000 yillarda 50 ta qishloq vrachlik ambulatoriyalari va feldsherlik-akusherlik punktlari kengaytirilib, qayta ta'mirlanib, qishloq vrachlik punktlariga moslashtirildi va zamonaviy tibbiy asbob-anjomlar, tashxis apparatlari bilan jihozlandi. Hozirgi kunda 165 ta qishloq vrachlik punkti faoliyat ko'rsatmoqda. 2005 yilga qadar

jami KVP lar soni 351 taga etadi. Birgina KVP qurilishi uchun 30 million so'm, tibbiy anjomlar bilan jihozlash uchun 5 mln so'm mablag' sarflandi.

Respublika Vazirlar Mahkamasining 1999 yil dekabr oyidagi "Da-volash profilaktika muassasalarini moliyalashtirish tizimini tako-millashtirish to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi.

Bizning mamlakatimizda Sog'liqni saqyaash tizimi milliy andoza-sining asosini sog'liqni saqlashning davlat tasarrufidagi barcha fu-qarolarga tibbiy xizmat ko'rsatishning eng qulay va maqbul shakli davlat hisobidan kafolatlanganligi tashkil etadi.

Ushbu qaror asosida 1998 yil 1 yanvaridan boshlab shifoxonalarda yotib davolanayotgan hamma bemorlarga ertalabki nonushta davlat hisobi-dan bepul berilmoqda.

Bolalar muassasalari, sil, ruhiy kasallar, narkomanlar, moxov, nur bilan kasallanganlar, zaxm va OITS kasalligi, yuqumli kasalliklarga cha-linganlar, jonlantirish va intensiv palatadagi bemorlar, homiladorlar va tug'ruqdan keyingi hollarda, kamqonlik kasalligi bor ayollar, endokrin kasalliklari bilan ogriganlar, shuningdek, nogironlar ham davlat tomo-nidan shifoxonada davolanayotgan vaqgda ovqat bilan bepul ta'minlanadi.

Bu qarorni amalga oshirishdan asosiy maqsad, bozor munosabatlari sharoitida asta-sekinlik bilan sugurta tibbiyotini shakllantirishdir.

Bemorlarga sifatli ovqatlar tayyorlash bilan birgalikda, topilgan mablag'ni tibbiy muassasalarning moddiy-texnik bazasini yanada yax-shilash, yangi diagnostik apparatlar, sanitariya avtomashinalarini so-tib olishga sarflanmoqda.

Andijon viloyatida o'ziga xos demografik holat mavjud, bu tug'ilish darajasining yuqoriligi, aholi ko'p qismining qishloqta yashashi va boshqalar.

Onalik va bolalikni muhofaza qilish, kelajak avlod —bolalarning sog'ligi birinchi navbatda ayollarning sog'ligiga bog'liq. Shuni e'tibor-ga olib Respublikamiz hukumati mustaqillikning birinchi yillarida-noq ayollarni sog'lomlashtirish Davlat dasturini qabul qildi. Ayollarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish, ularning umumiy sog'ligini belgilash, ay-niqsa, tug'ruq yoshidagi ayollarda ekstragenital xastaliklar aniqlangan-da ularni alohida ro'yxatga olib, sog'lomlashtirish borasida viloyatda juda katta ijobiy ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda.

Tug'ruqxonalar tuzil masi tub dan yangicha tashkil etildi. Ular tug'ruq komplekslari maqomini oldi. Boshqacha aytganda, tug'ishgacha sog'lomlash-tirish, tug'ruq zali va tuqqandan keyin ona-bolaning sog'ligini tik-laydigan bo'limlar tashkil etildi.

Viloyat hokimining 1998 yil 16 iyuldagi "Andijon viloyatida tu-g'ish yoshidagi ayollarni sog'lomlashtirish ishlarini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari" to'g'risidagi 112-sonli farmoyishiga asosan sog'liqni saq-lash tizimiga byudjetdan tashqari 30 mln. uch yuz o'ttiz ming so'm qo'shim-cha mablag' ajratildi.

Ajratilgan mablag' hisobidan ayollar ko'chma maslahatxonasini tashkil etish uchun 2 ta "PAZ" avtobusi, 1 ta UZI apparata, 3 ta laparaskop, 3 ta "DAMAS" avtomashinasi, kam qonli ayollarni bepul davolash uchun 1 mln. 600 ming so'mlik temir moddali dorilar sotib olindi. Bu borada ish olib borayotgan tibbiyot xodimlarini rag'batlantirish uchun 2,5 mln so'm mablag' ajratildi.

"Sog'lom avlod" yilida viloyat hokimining tashabbusi bilan onalar va bolalarni sog'lomlashtirish yo'nalishida ajratilgan byudjet mablag'laridan tashqari 95 mln. 280 ming so'm mablag' ajratildi. Ushbu mablaglar hisobiga bolalar muassasalarining moddiy-texnik bazalari yaxshilandi.

Olib borilgan ishlar natijasida 1995 yilga (63063) nisbatan 2000 yilda (44394) 18670 nafar kasalvand bolalar tugilishining oldi olindi.

2000 yilda "Sog'lom avlod" Davlat dasturidagi 6 ta yo'nalish bo'yicha bir qator tashkilotlar bilan birgalikda ijobiy ishlar amalga oshirildi. Jum-ladan, viloyat o'smirlar poliklinikasi, bolalikdan tug'ma nogironlarni aniqlash uchun "Ona va bola" skrining markazi tashkil etilib, 26694 nafar chaqaloqlar tekshirildi va 51 nafarida tug'ma nuqson borligi aniqlandi. Eshlarning turmush qurishdan oldin 10793 nafari tibbiy ko'rik-dan o'tkazildi, birinchi marotaba 7952 nafar yosh onalar dispanser nazora-tiga olindi. Viloyatdagi 3 ta tug'ruq kompleksiga 2000 yilda "Bolalarga do'stona munosabatda bo'luvchi shifoxona" xalqaro sertifikatga berildi.

Ushbu yo'nalishda viloyatda olib borilayotgan ishlar Respublika Va-zirlar Mahkamasida ko'rib chiqilib, boshqa viloyatlarda ham targ'ib qili-nishi haqida qarorlar qabul qilindi.

Prezidentimiz I.AKarimovning 1998 yil noyabr oyida "Tibbiyot so-hasini isloh qilish Davlat dasturi to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi. Ushbu qarorni amalga oshirishning eng asosiy vazifalaridan biri tez va shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazlarini tashkil etish bo'lib, viloyatda bu mak^sadda Andijon shahrida viloyat klinik shifoxonasi o'rnida 350 o'rinli Uzbekistan Respublikasi shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Andijon viloyati filialini tashkil etish uchun bir milliard 596 mln 972 ming sum mablag' sarflandi, bundan 548.2 mln so'm byudjet xisobidan qoplandi. Andijon shahar tez tibbiy yordam stantsiyasi va viloyat sanitar aviatsiya stantsiyasi filial tasarrufiga o'tkazildi,

Viloyat shahar va tumanlarida shoshilinch tibbiy yordam tizimini yara-tish maqsadida 3 ta shahar va 14 ta tuman markaziy shifoxonalari qoshi-da 390 o'rinli 17 ta shoshilinch tibbiy yordam bo'limlari— subfiliallar tashkil etish maqsadida 35 mln so'mdan ortiq mablag' sarflandi. Shu yil avgust oyiga qadar subfiliallarni qo'shimcha jihozlash uchun 1,5 milliard so'm mablag' ajratildi.

Keyingi ikki yil ichida viloyat shoshilinch tibbiy yordam tizimida 27618 ta bemor yotib davolandi. 13124 bemorga ambulator yordam ko'rsa-tildi. 14131 ta bemor jarroxdik nuli bilan davolandi.

Hozirgi kunda ham shoshilinch tibbiy yordam markazlari zamonaviy, tibbiyot sanoati rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ishlab chiqaril-gan diagnostika va davolash asbob-uskunolari hamda apparatlari bilan jihozlanmokda. Andijon Davlat tibbiyot oliygohi klinikasida viloyat hokimi tashabbusi bilan vodiya yagona magnit rezonansli kompyuter tamograf ishga tushirildi.

Shuni komil ishonch bilan aytish kerakki, bu yo'nalishda olib bori-layotgan islohotlar viloyat aholisi uchun har jihatdan maqbul va samarali bo'lmoqda. Islohotlarni amalga oshirishda kadrlar bilan ishlash, ularning malakasini oshirishga alohida ahamiyat berilmokda.

Viloyat aholisiga 6271 nafar vrach, shundan 8,4 foizi oliy toifali, 29,3 foizi birinchi toifali va 8,2 foizi ikkinchi toifali, 21445 nafar o'rta tibbiyot xodimi, shulardan 2,3 foizi oliy toifali, 23,5 foizi birinchi toifali, 4,1 foizi ikkinchi toifali tibbiyot xodimlari tibbiy xizmat ko'rsatmoqdalar.

2000 yilda 1059 nafar vrach (17,1 foiz), 2639 ta (11,8 foiz) o'rta tibbiyot xodimlari o'z malakalarini oshirdilar. Viloyat va tuman markaziy kasal-xonalari bosh vrachlari, sanitariya epidemiologiya markazlari bosh vrachla-ri egallab turgan lavozimiga shahodat komissiyasidan o'tkazildilar.

Viloyatda o'rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash va kasb mahoratlarining oshirilishita aloxida e'tibor berilmokda. Andijon, Asaka tibbiyot bilim yurtlari tibbiyot kollejlariga aylantirildi. Bo'z va Xo'jaobod tibbiyot bilim yurtlarida hamshiralar tayyorlash ishlari sifati yaxshilanmokda.

Andijon Davlat tibbiyot oliygohida oliy toifali hamshiralar tayyorlash bo'limi ochildi.

Hukumatimiz va shaxsan Prezidentimizning sa'y-harakatlari bilan ichki bozorni dori-darmonlar bilan tuldirishga bo'lgan talabni ta'minlash yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'rilmokda.

Lekin, milliy farmatsevtika sanoatini rivojlantirmay, xorijlik ishonchli g'amkorlar bilan mahalliy xom ashyo hisobiga dori-darmon ishlab chiqarishni yo'lga qo'ymay, bu muammoni hal etish mumkin emas-litini hayotning o'zi yaqqol ko'rsatib qo'ydi.

Dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlari xarid qilish va sotihisa qonun buzishlarning oldini olishda Vazirlar Mahkamasining "Dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlari sotishni tartibga solish to'g'risida"gi qarori ayni muddao bo'ldi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qaysi sohada raqobat paydo bo'lsa, bu sohada ijobiy yutuqlarga erishilayotganligi tibbiyot xodimlarini ham quvontirdi. Tibbiyot sohasida ham raqobat yaratish davri keldi. Bu aso-san aholiga ko'rsatilayotgan malakali tibbiy xizmatning sifatini yax-shilashga kafolat bo'la oladi.

Davlat Dasturida aholiga tibbiy xizmatni tashkil qilishda davlat tibbiy muassasalari bilan birgalikda nodavlat, davlat tasarrufidan chi-qarilgan turli firma va jamoa xo'jaligi qoshidagi xususiy shifoxona-lar, yakka tartibdagi vrachlar faoliyatini yo'lga qo'yish ko'zda tutilmoqda.

Viloyatda bugungi kunga qadar jami 64 ta ob'ekt davlat tasarrufidan chiqarildi. 48 ta xususiy tibbiy kichik korxona faoliyat ko'rsatmoq-da, yakka tartibda xususiy tibbiy faoliyat yuritish uchun 302 ta vrach litsenziya oldi.

2000 yilda xususiy sektorda 78090 ta bemorga tibbiy yordam ko'rsa-tildi, 49 mln 980000 so'm mablag' ishlab topildi.

Viloyatda 22 ta DPM lar 2005 yilga qadar bosqichma-bosqich o'z-o'zini moliyalashtirishga o'tishi rejalashtirilgan bo'lib, 2000 yilda ulardan 20 tasi byudjet mablag'ini pullik xizmat hisobidan ishlab topishi lo -zim edi. Yil yakuniga ko'ra ushbu muassasalarda 112 mln 355.9 ming so'm ishlab topildi. Bu mablag'lar asosan dori-darmon sotib olish, oziqovqat, xo'jalik xarajatlari va tibbiyot xodimlarini rag'batlantirish uchun sarflandi.

Viloyat hududiga tashqaridan kelib tarqaladigan karantinli va o'ta xavfli yuqumli kasalliklarning oldini olish maqsadida viloyat hokim-ligi etarli miqdorda mablag' ajratib kelmoqda. 2000 yilda aholini emlash uchun 48 mln 700 ming so'mlik zaruriy vaktsina, zardoblar sotib olindi. Aholining toza ichimlik suvga bo'lgan talabini qondirish, viloyatdagi sanitariya holatining yaxshilanishi uchun viloyat hokimligi tomonidan bir necha yillardan buyon o'tkazilayotgan tozalik va obodon-lashtirish ko'rik-tanlovlari natijasida yuqumli oshqozon ichak kasal-liklari tarqalishining oldi olinmoqda.

Kasallikni davolashdan ko'ra, oldini olgan afzaldir. Aholi o'rtasi-da sog'lom turmush tarzining targ'iboti, yuqumli kasalliklarning oldini olish, aholining tibbiy savodxonligini oshirihtsa tibbiyot xodimlari bilan bir qatorda viloyat teleradiokompaniyasi, "Andijonnoma", "Andijanskaya pravda", tuman va shahar ro'znomalari, nashriyot bo'limla-ri ham mustaqillik yillarida bu sohada tubdan o'zgarish qildilar.

Sog'lik —bebaho boylik, uni muhofazalash, saqlash va tiklash haqida gapiribgina qolmay, amaliy ishga o'tish davri keldi. Buni andijon-liklar yaxshi biladilar.

MADANIYAT

I Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Andijon viloyati hududida tari-xiy va madaniy obidalar ko'plab mavjud. Bu g'oyat noyob yodgorliklar biz-larga ajdodlarimizning o'tmish hayotini, turmush tarzini, madaniyati-ni bilish, o'rganishda asosiy omildir. Boshqacha qilib aytganda ular biz uchun muqaddas merosdir.

Ana shunday yodgorliklardan biri Jalolquduq rayoni hududidagi Dalvarzin tepadir. U eng qadimgi arxeologik yodgorlik bo'lib, eramiz-dan avvalgi ikki ming yillik oxirida Markaziy Osiyodagi obod joy-lardan biri bo'lgan. Bu qadimiy shahar vayronasi ekanligi haqida sankt-peterburglik olim Yuriy Aleksandrovich Zadneprovskiy ilmiy tadqi-qot ishlarini olib borgan.

Bu tepaliqdan topilgan ibtidoiy jamoa davridan uyg'onish davriga-cha yashagan ajdodlarimizning yuzlab uy-ro'zg'or buyumlari hamda mehnat qurollari ko'hna turmush tarzi haqida darak va tasavvur beradi. Ularning ba'zi namunalari Sankt-Peterburgdagi Ermitaj muzeyida saq-lanmoqda.¹

Andijon viloyati hududida tarixi hali mukammal o'rganilmagan mas-kan bor. Bu Xo'jaobod tumani markazidan 20—25 km yiroqyaikdagi Imom-ota tog'ining shimoli-sharqida joylashgan, fanga unchalik ma'lum bo'lma-gan Ko'krakli g'or makonidir. Arxeolog olimlarning farazlaricha, g'or-dagi odamlar miloddan 140—120 ming yil ilgari istiqomat qilganlar.

Bu ris, vryum muzlanish davriga to'g'ri keladi. Bu g'orda istiqomat kalgan ibtidoiy odamlar tog' mevalarini terib eb, yovvoyi hayvonlarni ov-lab tirikchilik o'tkazganlar.

"Ko'krakli g'or makoni yoysimon shaklda bo'lib, eni 20 metr dan or-tiqroq janub tomonga qaragan, sathi keng, quruq va yorug'. G'orni o'rga-nish natijasida bu erda odamlar uzoqvaqt yashaganliklari ravshan bo'ldi. Shuning uchun ham bu g'or ichida 8-9 metr qalinlikdagi 17 madaniy qat-lam vujudga kelgan. G'orda ibtidoiy odamlar madaniyati va hayotini aks ettiruvchi madaniy qatlamlar hozirgacha saqlanib qolgan". (A.Nabiev, T.Xurilov. "Bobur tavof aylagan diyor" T. "Mehnat" 1993).

Ko'krakli g'ordan 2 km chamasi g'arbda muste davriga oid «Qiz so'ygan» degan g'or topilgan. G'ordan tosh qirg'ichlar, nukmuslar, qadimgi hayvon-larning suyak qoldiqyaari topilgan.

Ana shu joylarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida mezolit (o'rta tosh asri) davrida ham Andijon viloyati hududida odamlar yashaganligi aniqlangan, o'sha davrga xos bir qancha madaniy yodgor-liklar topilgan.

Imomota g'ori ichida qoya toshga o'yib ishlangan ulkan arxarlar gala-si, ularning markazida bo'rttirib ishlangan ot tasviri g'oyat nodir va noyob asarlardir. Mutaxassis olimlarning ta'kidlashlaricha, bu mezolit davriga oid birinchi nodir surat hisoblanadi.

Andijon viloyati hududida bunday arxeologik tepaliklar, arxitektura hamda monumental yodgorliklarning ko'plari saqyaanib qolgan. Ular-ni muhofaza qilish, avaylab-asrash ishlari

mustaqillik yillarida, ay-niqsa kuchaydi. Zero, xalqimizning uzoq o'tmishidan qolgan tarixiy obidalarini ilmiy asosda o'rganish ko'hna madaniyatimiz qadimgi Misr, Xitoy, Hindiston, Yunoniston, Rum va Egey dunyosi madaniyatidan qolishmasligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, xalq amaliy san'atining eng qadimiy turlaridan biri ku-lolchilikdir. Andijonning Chordona mahallasidan topilgan sopol buyum-lar bundan 4000 yil ilgari tayyorlanganligi ma'lum. Yuksak did bilan ishlov va sayqal hamda rang berib ishlangan ana shu arxeologik topilmalar Andijon azaddan yirik madaniy markaz bo'lganligidan darak beradi.

Andijonda kulolchilik sulolasi hozirgacha saqlanib qolgan. Betakror naqshlar solishda kulollardan Mirzahamdin Mirzaev hamda Muhammada-li Haydarovlar o'sha qadimiy maktab rivojiga katga hissa qo'shgan, azaliy uslublarga sayqal bergan xalq san'ati ustalari hisoblanadilar.

Andijonda kulolchilik mustaqillik yillarida, ayniqsa qayta jon-lanib rivojlana boshladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining el-lik yilligiga bag'ishlanib 1995 yili Toshkent shahrida bo'lib o'tgan "Ustoz-shogird", "Barhayot an'analar" Respublika badiiy hunarmandchi-lik ko'rgazmasida kulolchilik sulolasining etuk davomchisi Mirzabakhrom Abduvahobov xalqaro sertifikat hamda pul mukofoti oldi. Shu-ningdek, Abdumannob Tillaqulov, Qutbiddin Turdiev hamda Abdumannob Akbaraliev kabi ustalar bugungi Andijon kulolchiligini o'ziga xos yangi uslublar bilan yanada boyitmoqdalar.

Ma'lumki, kashtachilik xalqimizning azaliy mo'tabar san'atidir. Xonadonda qiz tug'ilsa, uni mohir ustalarga shogird qilib berib kashta-chilikning nozik sirlarini o'rgatganlar. Yangi kelin tushgan uy nodir shohi so'zana-yu, harir ipak bilan kamalak rangli tovlanuvchi gullar ti-kilgan palaklar bilan bezatilgan. Shunisi quvonchliki, mustaqillik sharofati bilan Andijonda ana o'sha ko'zni qamashtirib, qalblarga zavq bag'ishlovchi kashtachilik xalq san'ati qayta rivojlanib bormoqta.

Andijonda bu san'at ikki yo'nalishda, ya'ni qo'l va mashina kashtasi yo'nalishida rivojlanmoqda. Qo'l kashtasi uslubida do'ppi tikish omma-viy tue oldi. Andijon qizlari va juvonlari mohir va nozik barmoqyaa-ri bilan rosa o'xshatib tikkan "Qalin" "Injiq", "Setora" do'ppilari-ni bugun mamlakatimizning barcha viloyatlarida, qo'shni Qirg'iziston va Tojikiston respublikalarida uchratasiz.

Andijon kashtalari o'ziga xos uslubga ega. Ayniqsa, Maygir kashta-lari alohida ajralib turadi. Maygirlik Oqbekachi ayaning shogirdlari Mutlaxon Parpieva va Xatichaxon ayalar milliy kashtachilikka yanada sayqal bermoqdalar. Qo'rg'ontepa, Jalolquduq, Bo'z, Oltinko'l tumanla-rida ham kashtachilik o'ziga xos yo'nalishda kamol topmoqda.

Shuningdek, Andijon zargarlik va misgarlik san'ati ham o'ziga xos yo'nalishda rivojlanib bormokda. Andijonlik Odil zargar, Madamin zargar, Otaboy zargar, Asakalik Mamarayim va Rajab zargarlarning yuksak mahorati bilan tilla va kumuhtsan yasalgan «Qashqarbaldoq», «Ilon bosh-li»

bilaguzuk va tumorlar, kumushdan hol berib ishlangan "Dakanapoy-nak" pichoq qinlari san'at asari darajasida bo'lgan. Qodirjon Fozi-lov, Nasriddin Karimov, Kozimjon Xojimatov kabi mohir ustalar mustakdlik yillarida Andijon zargarlik san'atini yanada yuksak darajaga ko'tarish uchun mehnat qilmoqdalar. Ismoiljon Qo'chqorov esa mamlakatimizdagi mohir misgarlardan biridir.

G`Shahrixon pichoqsozligi ikki yuz yillik tarixga ega. Shahrixon pichoqsozligini usta Eshon bobo va uning sulolasi usta Ibodullo, usta Ali-toy, usta No'monjon, usta Rahmatxo'ja, usta Polvonxo'jalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ana shu katta ustalarning ishini bugun usta Rahmatxo'ja-ning shogirdi Sodiqjon Ne'matov davom ettirmoqda. "Amir Temur sham-shiri", "Bobur shamshiri" kabi betakror zargarlik san'ati darajasiga etkazilgan qilichlari uni Respublikamiz va xorijiy mamlakatlarda tashqariga etilgan ko'rgazmalarda qatnashish baxtiga muyassar etdi.

Milliy musiqiy asbobsozlik sohasida Abdumalik Madrahimov o'zi-ga xos maktab yaratdi. Abdumalik rahbarligida Zahiriddin Muhammad Bobur davridagi qadimiy musiqiy sozlar asosida yasalgan "Dilnavo", "Dilrabo", "Meros", "G'ijjaki Boburiy" kabi musiqa^esboblari bugun mamlakatimiz tashqarisida ham mashhur bo'lib ketdi.

Ma'lumki, Andijon olamshumul shuhrat egasi Zahiriddin Muhammad Bobur, Nodirabegimlar yurti. XX asr yangi o'zbek adabiyotining ulkan namoyandasi Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon Andijonda taval-lud topgan. Andijonda mumtoz sharq adabiyotining eng ommaviy shakli—g'azalchilik an'analari izchillik bilan, muvaffaqiyatli davom ettirilib kelinmoqsa. Bu erda Zokirjon Habibiy, Oraziy, Ulfat, Vo-sit Sa'dulla, Hoshimjon Razzoqov, Sayfiy, Anisiy, Azimiy, Boqir kabi o'nlab g'azalnavislar yashab ijod etdilar. Ularning aruzga asoslangan ijodlari zamonaviy badiiyat o'rtasida mustahkam ko'prik bo'ldi.

Sobir Abdulla, Sulton Jo'ralar ijodi shu zaminda shakllandi va obro'-e'tibor qozondi. Dongdor dramaturg Komil Yashin, adabiyotshunos olim va adib To'xtasin Jalolov, xassos shoira Sayda Zununovalar o'zbek adabiyoti rivojida alohida o'rin va mavqega egadirlar.

Keyingi o'ttiz yilda yangi bo'gin va avlodlar kamol topdi. Bu davrda hamma janrlar baravariga quloch yoydi. Uzbekistan xalq shoiri To'lan Nizom, Respublikada xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Olimjon Xoldorov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimlari Tursunoy Sodiqova va Xoldorjon Quronboev, iste'dodli shoirlar Fozil Emin, Hali-ma Qoraboeva, Ismoil To'lak, Xanifa Solihova, Abduhalil Qoraboev, Usmonjon Shukurov, Farid Usmon, Zamira Ro'zieva, Qobil Mirzo, Munavvara Tillaboeva, Xurshida, Nabi Jaloliddin, nasrda Habibullo, Qamchibek Kenja, Sotvoldi Rajabov, Ubaydulla Sodiqov, Odiljon Oli-mov, Omina Tojiboeva, dramaturgiyada Rahbar Fayziboeva, Zahiriddin Muhiddinov, Komiljon Nishonov, Nazirjon Rahimov, Ziyo Najmiy, bolalar adabiyotida Muqimjon Niyozov, Odil Abdurahmonlarning nom-lari butungi kunda mamlakat xalqiga yaxshi tanishdir.

Nusrat Abdusalomov, Habib Siddiq, Najmiddin Ikromov, Rafiq Muxtor, Dilmurod Shokirov, Hamidullo Yusupov, Muborak Qosimova kabi bir necha o'nlab shoir va adiblar ijodi mustaqillik, yangi davr-ning qutlug' nafasi bilan yo'g'rilib bormoqda.

1918 yili Turkistonda birinchilar qatorida Andijon shahrida musi-qali drama va komediya teatri tashkil topdi. Bu dargohtsa Abbos Bakirov, Muzaffar Muhammedov, Xalima Nosirova, Lutfixonim Sarimsoqova, Ta-maraxonim, Soyib Xo'jaev, Asad Ismatov, To'xtasin Jalilov, Oysar Ib-roxdmov, Xadicha Aminova va boshqa yirik san'atkorlar etishib chikdilar.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mustaqillik yillarida teatr re-pertuari tubdan o'zgardi. Milliy istiqlol g'oyasi bilan sug'orilgan yangi asarlar sahnaga olib chiqildi. Mustaqillik yillarida sahnalashtiril-gan 70 ga yaqin turli janrdagi spektakllarning aksariyati tom ma'noda-gi buyuk madaniyat, oliy darajadagi sharqona odob va axloq timsollari bo'lgan buyuk bobokalonlarimiz hayoti, ijodi, bebaho meroslari xolisa-nillo, to'g'ri va to'laqonli aks ettirilgan asarlardir.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Viktor Ligay o'zi-ning qariyb 50 yillik ijodiy faoliyatini teatr san'atini rivoj-lantirishga bag'ishlab kelayotgan insondir. U o'zbek va jahon dramatur-giyasining yuzdan ortiq turli janrlardagi asarlariga sahna bezagi ish-ladi. Viktor Ligay o'z tasviriy-ifodaviy uslubiga ega bo'lgan rassom darajasiga ko'tarildi. Ayniqsa, rassomning "Richard III" "Qirol Lir", "Tohir va Zuhra", "Toshbolta oshiq", "Cho'lpon" kabi sahna asarlarida o'ziga xos badiiy mahorat echimining guvohi bo'lasiz.

O'z bosib o'tgan shonli yo'li, tarixiga ega bo'lgan bu musiqali drama va komediya teatri 2001 yilning bahoridan boshlab Zahiriddin Muham-mad Bobur nomi bilan atala boshladi. Andijonda, shuningdek, Abbos Bakirov nomidagi yoshlar teatri ham ishlab turibdi.

1968 yili Andijon shahrida "Lola" qo'g'irchoq teatri ochildi. Keyin-gi yillarda esa Andijon shahrida "Istiqlol" teatr studiyasi ochilib, samarali ishlamoqda.

Viloyat hokimligining tashabbusi bilan 1999 yilda "Andijon baho-ri —99" xalqaro teatr san'ati festivali o'tkazildi. Festivalga hamdo'-stlikdagi davlatlarning va mamlakatimizning taniqli san'atkorlari yangi asarlari bilan kelgan edilar. O'shanda ular bu festivalni 2 yilda bir marta o'tkazib turishga kelishib olgan edilar. Ana pgunga binoan viloyat hokimligi "Andijon bahori—2001" festivaliga yanada ko'proq jamoalarni taklif etdi. Bu festivalda Qozog'iston Respublikasining Chimkent hamda Jetisoy viloyat teatrlari, Qirg'iziston Respublikasining O'sh viloyati o'zbek, qirg'iz drama teatrlari, Boshqirdiston Respub-likasidan bir guruh san'atkorlar, Toshkentdagi Hamza nomidagi va yoshlar teatrlari jamoalari ishtirok etdilar.

Oltinko'lda sad rostlagan ushbu zamonaviy kollej yoshlarimizga
ajoyib sovg'a bo'ldi

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinishi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va madaniy ri-vojlantirishida ustuvor yo'nalish bo'ldi.

Mazkur Qonun viloyat xalq ta'limi boshqarmasining 1992 yil 20 oktyabrdagi hamkorlik kengashida o'rganilib, ta'lim-tarbiya muassasalarida amalga oshirish bo'yicha "Istiqbol ish rejasi" tuzildi va uni bosqichma-bosqich amalga oshirish yuzasidan tegishli tadbirlar tasdiqlandi.

Hamkorlik kengashi ish rejasiga asosan Izboskan tuman xalq ta'limi bo'limi va 28-hunar-texnika bilim yurtida xalq ta'limi xodimlari-rini ijtimoiy jihatdan himoyalash bo'yicha Prezident farmonlarining bajarilishi, Xo'jaobod tuman xalq ta'limi bo'limiga qarashli maktab, maktabgacha tarbiya va maktabdan tashqari muassasalarida "Ta'lim to'g'ri-sida"gi Qonun asosida olib borilayotgan ishlar, Marhamat tuman xalq ta'limi bo'limining boshqaruv apparati faoliyatini qayta qurish ish tajribasi va 9 yillik majburiy ta'limga o'tish munosabati bilan Andijon tuman xalq ta'limi bo'limida olib borilayotgan ishlar o'rganildi, ana shu qonun asosida ish yuritila boshlandi.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasiga asosan chet tillarni chuqur o'rgatish, avvaldan o'qitilayotgan arab, fors, urdu tillari bilan bir qatorda Andijon va Shahrixon shaharlari, Andijon va Asaka tumanlari maktablarida turk tilini o'rganish bo'yicha maxsus sinflar ochildi.

Shu bilan birga Andijon shahar, Andijon, Asaka, Izboskan, Xo'ja-obod, Paxtaobod va Jalolquduq tumanlari maktabgacha tarbiya muassasalarining maxsus guruhlarida ingliz tili o'rgatila boshlandi.

Viloyat xalq ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi barcha umumta'lim

1967 yili Andijon shahrida Bobur nomli kutubxona ishga tushdi. Mustaqillik yillarida kutubxona kitob javonlari milliy istiqloq g'oyasi bilan sug'orilgan turli adabiyotlar bilan to'ldirilib bormoqda. Bu ziyo maskani doim kitobxonlar bilan gavjum.

Viloyat ju sikali drama va komediya teatri

Andijonda "Rassom" ijodiy ustaxonasining tashkil topishi viloyatda tasviriy san'atning shakllanishi, ijodkorlar guruhining yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi. Bugungi Andijon tasviriy san'atida grafika va rangtasvir ustasi Nizomiddin Xoliqovning alohida o'rni bor. Nizomiddin Xoliqov grafika san'atining barcha texnika va uslublarida o'z iqtidorini sinab ko'rgan etuk rassomdir. Uning "O'tmishi-miz", «Zamondoshlar» turkumidagi yoki Mustaqil Uzbekistonning betakror go'zal manzaralari tasvirlangan dastgohli asarlari davr ruhiyatini chuqur his etish bilan ajralib turadi.

Musavvir Obidjon Bakirov rangtasvirning portret, manzara va natyurmort janrlarida sarmahsul ijod qilib kelmoqda. Uning rangtasvirilarida mustaqillik fidoyilarining portretlari, vodiyni go'zal tabiati, tabiat in'om etgan noz-ne'matlar, xushbo'y hid taratib turgan chiroyli gullari-yu, o'sha go'zallik qo'ynida yashab mehnat qilayotgan insonlar ifodalanadi.

Ulug'bek Boltaboevning dastgohli asarlaridagi mazmundor ranglar, falsafiy mushohadalar, o'ziga xos tashbehlar, eng avvalo, muxlisning ruhiga ta'sir qiladi, fikrlashga chorlaydi. "Qo'shiqning tug'ilishi", "Berklnmachoq o'yini" va boshqa asarlarida rassomning betakror tasviriy

uslub va umuminsoniy g'oyalarining guvohi bo'lasiz. Zamondoshlar" turkumqtsagi qator portret asarlari bilan katta-katta ko'rgazmalarda ishtirok etib kelayotgan Hasanboy Saidovning Bobur hayoti bilan bog'liq o'ndan ortiq asarlari Andijon viloyati tasviriy san'ati hayotida o'ziga xos voqea bo'ldi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, mustaqillik xalq amaliy va tasviriy san'at ustalariga ijodiy erkinlik berdi. Mustaqillik hamda «Navro'z» milliy bayramlarimiz xalq amaliy san'at ijodkorlari uchun chinakam tantanaga, ular mahoratlarining sinov maydoniga aylandi. Unu-tilib ketgan hunar turlari bayramlar munosabati bilan tashkil qilina-yotgan ko'rgazmalarda qaytadan tiklanmoqtsa, ro'yobga chiqmoqda. Yangi-yangi buloq ko'zlari ochilmoqtsa, xalq amaliy san'ati kamol topmoqda.

1992 yili tashkil etilgan viloyat hunarmandlarining birinchi ko'rgazmasida usta Yo'lbars O'taganov birinchi o'rinni egalladi. Zero, yog'och o'ymakorligi namunalari o'tmishda ajoyib ustalar mehnatidan da-rak berib turgan bo'lsa-da, xalq san'atining bu turi yo'qolib ketayotgan edi. Aytish joizki, bu soha usta Tesha Ismoilov, Mirzaahmad Nasrid-dinov, usta Yo'lbars O'taganovlar ijodida qayta kamol topdi. Ayniqsa, usta Tesha Ismoilov respublika miqyosidagi o'nlab me'moriy yodgorlik-lardagi o'ymakor eshiklarni tiklashda katta mahorat ko'rsatdi. Usta Tesha aynan ana shu xizmatlari uchun "Respublikada xizmat ko'rsatgan san'at arbobi" unvoniga ega bo'ldi. Usta Yo'lbars o'z shogirdlari bilan Andijonda yog'och o'ymakorlik san'atini yanada rivojlantirdi. Bu sohada o'zi-ga dos maktab yaratdi.

Andijonda bugun 2 ta Davlat muzeylari ishlab turibdi. Viloyat o'lka-1punoslik muzeyi 1934 yilda qishloq xo'jaligi ko'rgazmasi negizida tashkil topgan edi. Bu muzeyning asosiy yo'nalishi Andijon viloyatida istiqomat qiluvchi xalqning ibtidoiy jamoa davridan hozirgi kungacha bo'lgan tarixini, arxeologik maskanlarini, tabiati, foydali qazilma boyliklari, etnografiyasi hamda madaniy-siyosiy, ijtimoiy hayotini ilmiy tadqiq qiluvchi, ular haqida tarixiy hujjatlar, qimmatli ashyo-lar va manbalar to'plash va ushbu maskanda aks ettirishdir. Ularni kel-gusi avlodga etkazish muzey faoliyatining asosini tashkil etadiG`

Viloyat o'lkashunoslik muzeyining tumanlarda 7 ta shoxobchasy ishlab turibdi. 70 mingga yaqin qimmatli ashyo va manbalar saqlanadi. Muzey har yili 120—130 mingdan ziyod tomoshabinlarga xizmat qilmoqda.

1989 yilda tashkil topgan viloyat adabiyot va san'at muzeyida quyi-dagi bo'limlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Jome' me'moriy yodgorlik majmuida joylashgan adabiyot, xalq amaliy va tasviriy san'at bo'limi.

"Ark ichi" me'moriy yodgorlik binosida joylashgan "Bobur" yodgorlik muzeyi.

Soyguzardagi Cho'lpon bog'ida joylashgan "Cho'lpon" yodgorlik muzeyi.

"Qal'a" yodgorlik binosida joylashgan "Qo'lyozmalarni o'rganish ilmiy markazi".

Muzey xodimlari viloyatda adabiyot, xalq amaliy va tasviriy san'ati, qo'lyozmalar tarixi, Bobur va Cho'lpon faoliyatlari, teatr hamda me'-morchilik san'ati tarixi, ularning rivojlanish bosqichlari haqida ilmiy tadqiqot va yig'uv ishlari olib bormoqdalar. Ushbu jamgarmada 12 mingdan ziyod qimmatli ashyo va manbalar bo'lib, yiliga 70 mingga yaqin tomoshabinlarga xizmat qilmoqda.

Viloyatda "Andijonnoma" va "Andijanskaya pravda" ro'znomalari chop etiladi. Har ikkalasi ham O'zbekistonda chiqayotgan ro'znomalarning eng keksalaridan hisoblanadi. Bundan tashqari, viloyatning hamma tumanlari ham o'z ro'znomalariga ega. Mustaqillik sharofati bilan hozir o'nlab gazetalar chiqmoqda.

Andijon shahrida 1912 yilda ochilgan bosmaxona-tsex 1975 yilda sha-harning shoh ko'chasida qurilgan yangi binoga o'tdi. Hozir zamonaviy poligrafiya kombinatiga aylandi.

Fargona vodiysi "oynai jahon"ining ustuni ham Andijondadir. Xakan adirining eng baland cho'qqisiga joylashgan televizion minora ko'pchilikka ma'lum. Vodiyning barcha shahar va qishloqlariga televizion ko'rsatuvlar shu "Teleminoradan" uzatiladi. Ushbu telemarkazning tashkil etilganiga 40 yildan ko'p vaqt o'tdi.

Shu yillar mobaynida televizion ko'rsatuvlar hajmi bir necha baro-barga ortdi. Bugungi kunda vodiyning har bir xonadonida erta tongdan kech oqshomgacha televizor ekrani ro'parasida o'tirib, mamlakatimizdagi hamda jahondagi voqealardan xabardor bo'lish imkoniyati mavjud. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mustaqillik yillarida televizion ko'rsa-tuvlarning mazmun va sifati tubdan yaxshilandi.

Ushbu telemarkaz orqali bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi te-levideniesining birinchi va ikkinchi programmolari, Rossiya jamoat-chilik televideniesining dasturlari efirga uzatilmoqda.

Shaharning markaziy maydoni 1991 yildan boshlab Zahiriddin Mu-hammad Bobur nomi bilan ataldi va bu erga uning ot minib turgan haykali o'rnatildi. Bobur qadamjolarini obodonlashtirish, uning no-mini abadiylashtirish borasida mustaqillik yillarida katta ishlar qilindi va qilinmoqda. Bobur uy-muzeyi tashkil etildi.

Bobur nomli xalqaro ilmiy ekspeditsiya tashkil etilib, 1992 yildan buyon bir necha marta Bobur izidan safarga borib qaytdi. Afg'oniston, Pokiston, Hindiston, Eron, Turkiya, Suriya, Iordaniya, Saudiya Arabis-toni, Birlashgan Arab Amirliklari, Xitoy va boshqa mamlakatlarda bo'lgan ekspeditsiya a'zolari Bobur va boburiylar merosini o'rganib qayt-dilar. Natijada kitoblar chop etildi, video va kinofilmlar tayyor-landi. Agradagi uning maqbarasidan hamda Qobuldagi qabridan tuproq keltirilib, Bog'ishamolda uning ramziy qabri barpo etildi.

Andijon shahrining janubi-sharqi — Bog'ishamolda 300 gektar may-donni egallagan Bobur nomidagi milliy bog' tashkil etildi. Shuning-dek, Xo'jaobod hududida Bobur qadamjolaridan biri

— Lotkontepada ham ajoyib ziyoratgoh barpo etildi. Bu ziyoratgoh Shirmonbuloq, Chilustun tog'lari bilan tutashib ketgan.

Andijonning bunday ziyoratgoh joylari ko'p. Sultonobod, Xonobod, Andijon dengizi kabi joylar mustaqillik yillarida yanada go'zal, yanada obod bo'lib, bu erga tashrif buyurgan chet ellik mehmon va sayyohlarda katta taassurot qoldirmoqda. Asaka, Shahrixon, Poytug', Qo'rg'ontepa shaharlari xalq hunarmandchiligining azaliy o'choqlari sifatida badiiy buyumlar ishlab chiqarish bilan mapghurdir.

Kuyganyor o'ziga xos takrorlanmas go'zallikka ega bo'lgan joydir. Bu erda Farg'ona vodiysining yuragi Katta Farg'ona kanalining bosh to'g'o-ni joylashgan. Xuddi shu erdan vodiyning arteriya qon tomiri —Qora-daryo va katta Farg'ona kanal iga suv taqsimlanadi. Xuddi shu erda ikki daryo oraliq'ida Katta Farg'ona kanali qurilishiga bag'ishlangan muzey joylashgan. Bu muzeyda Er sharining turli burchaklaridan mamlakati-mizga tashrif buyurgan taniqli kishilar bo'lishgan.

Qadimiy obidalar bizni qadimiy o'tmish bilan, ota-bobolarimizning boy ma'naviy dunyosi bilan uzviy bog'lab turuvchi vositadir. Ularda xalq-ning nechog'li san'atkorona mahoratga, beqiyos tafakkurga ega bo'lganligi aks etgan. Ayniqsa, sharq me'morchiligi takrorlanmas mo'jiza sifatida butun dunyoni lol qoldirgan. Tarixning zalvorli silsilalaridan omon qo'lib, bizgacha etib kelgan obidalar chinakam xalq boyligidir. G'arbiy Andijon viloyatida ham ana shunday me'moriy boyliklar talaygina bor. 500 dan ortiq me'morchilik, haykaltaroshlik namunalari meros hisoblanadi. Hozir ular davlat himoyasidadir. Qadimiy "Ark ichi" yod-gorligi, Jome me'moriy obidasi o'zining betakror arxitektura qurilishi, go'zalligi, salobati bilan hamon ko'pchilikni maftun etib turibdi. Asaka tumanidagi "Gumbaz" madrasa-masjidi, Qo'rg'ontepadagi Mirzaqul bo'lish madrasasi, Madaniyatdagi Otaqo'zi madrasasi, Shahri-xondagi Ponsod masjidi, Andijon shahridagi Ahmadbek hoji mehmon-xonasi va boshqa ko'pgina yodgorliklar go'zal va tabarruk qadamjolar hisoblanadi. Ularda ishlatilgan ganj o'ymakorlik, sir-naqqoshlik kabi hunarmandchilik san'ati namunalari ajdodlarimizning yuksak iqtidoridan darak berib turibdi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mustaqillik tufayli qadriyatlar, urf-odatlar tiklanmoqda. Ajdodlar qoldirgan meroslar ulug'lanmoqta. Darhaqiqat, bu muhim ishga berilgan katta e'tibor kelajak avlodning barkamol ulg'ayishi uchun qo'shilgan benazir hissa bo'ladi. Zero-ki, qadimiy yodgorliklarda xalqimizning ruhiyati barhayotdir.

Butun ommani, ayniqsa, yoshlarni ma'naviy barkamol, siyosiy etuk, bilimdon va tadbirkor, eliga, Vataniga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalashda ma'naviyat va ma'rifat maskanlarining ahamiyati beqiyosdir. Ana shunday ulug'vor vazifalarni bajarishda, shubhasiz, madaniyat xodimlari tomonidan uzluksiz o'tkazib kelinayotgan turli ko'rik-tanlovlar, festivallar, uchrashuvlar, kechalar, munozara va bahslar katta ahamiyatga ega bo'lmoqda. Viloyatimizda an'anaga aylanib qolgan

"Gulla, yashna jon Andijonim!", "Mehnatim, san'atim senga, hur Vatan!", "Ona yur-tim, mahallamda gullar bayrami", "Andijonni gullar viloyatiga ay-lantiraylik!" kabi nomlar bilan o'tkazib kelinayotgan san'at va mehnat festivallari, "O'zbekiston Vatanim manim" qo'shiqlar tanlovi, Soyib Xo'jaev xotirasiga bag'ishlangan qiziqchi va askiyachilar ko'rik-tanlov-lari, Xabiba Oxunova nomidagi "Alla" ko'rik-tanlovi, Zulfiya nomidagi kurik-tanlov va boshqa ommaviy sayillar va bayramlar yaxshi sama-ralar bermoqda. Qilingan ishlarning natijasi o'laroq shaharlarimiz va qishloqlarimiz kundan-kunga chiroy ochib obodonlashib, go'zallashib bormoqda. Yangi-yangi badiiy jamoalar, kelajagi porloq yosh iste'dod-lar, iqtidorli ijodkorlar etishib chiqmoqda. Oqibatda yoshlar ruhiyati-da, ularning dunyoqarashida tub o'zgarishlar sodir bo'lmoqda.

Bog'lar, xiyobonlar, ommaviy dam olish maskanlari kundan-kunga meh-natkashlar bilan gavjumlashib bormoqda. Ularda olib bo'layotgan ma-daniy-ma'rifiy tadbirlarning mazmun va mundarijasi ham boyib ken-gaymoqda.

Bunday keng ko'lamdagi ijobiy ishlarni kutubxonalar faoliyatida ham ko'rish mumkin. Eng quvonarlisi shuki, bu ziyo maskanlarida uzbek tili-dagi adabiyotlar soni kundan-kunga ko'payyapti. Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida, maktab va kollejlarda, korxonalarda, mahallalar va dam olish maskanlarida kutubxonalar xodimlari tomonidan o'tkazilayotgan ommaviy tadbirlarning aksariyati yoshlar dunyoqarashlarini shakllantirishga, ularnrsheg komil inson bo'lib etipguvlariga yo'naltirilmoqda.

Har bir ishning samarasi yaratilgan shart-sharoitga bog'liq. Hech mu-bolag'asiz aytish mumkinki, viloyatda bunday imkoniyatlar etarlicha yara-tib berilgan. Keyingi paytlarda Andijon shahridagi Navoiy nomli madaniyat va istirohat bog'ida barpo etilgan, dunyo standartlariga to'la javob beradigan zamonaviy va hashamatli «Amfiteatr», viloyat teatr binosi va uning atroflarining qaytadan bunyod etilishi, g'oyat mazmun-dor, salobatli "Xotira va qadrlash" maydonining qisqa vaqtda bunyod etilishi, qator madaniyat maskanlarining qulay bo'lgan yangi binolarga ko'chirilishi, badiiy jamoalar uchun tiktilgan zamonaviy sahna kiyimlari, xarid qilingan zamonaviy texnika vositalari, bellashuv g'oliblari va ijodkorlarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirishning yaxshi yo'lga qo'yilishi, viloyatda san'at va madaniyatning yuksalishi uchun muhim omil bo'lmoqda.

SPORT

Andijon butun jahonga o'zining sport sohasidagi katta yutuqlari bilan ham mashhurdir. Chim ustida xokkey bo'yicha "Andijanka" ayollar jamoasi Evropa chempionlari Kubogi sohibi, 1980 yilgi Olimpiada o'yinlarining bronza medali sovrindori, xalqaro turnirlar g'olibi bo'lgan. Chim ustida xokkey bo'yicha "Zvezda" erkaklar jamoasi Uzbekistan Respublikasining 23 karra chempioni bo'lgan.

Andijonda xizmat ko'rsatgan sport ustasi, Evropa chempioni[^] Jahon Kubogi g'olibi, Jahon rekordchisi, engil atletikachi Svetlana Ulmaso-va va uning jamoadosh dugonasi Zamira Axtyamova, boks bo'yicha Evropa chempioni Feliks Pak, sambo bo'yicha Evropa chempioni Mele An kabi mashhur sportchilar tarbiyalanganlar.

Olimpiada o'yinlarida andijonlik sportchilar muntazam ishtirok etganlar, ular orasida Seul Olimpiadasining og'ir atletika bo'yicha ku-mush medal sovrindori—Noil Muhammadiyrov, chim ustida xokkey bo'yi-cha —Igor Davidov, Moskva Olimpiadasining chim ustida xokkey bo'yicha bronza medal sovrindorlari—Leylya Ahmedova, Nellya Gorbotkova, Alina Xam, Valentina Zazdravnix kabilar bor.

Andijonliklar 37 sport turi bo'yicha turli darajadagi musobaqalar-da ishtirok etmokdalar, 40 dan ortiq sport turini rivojlantirmoqtsa-lar. Ulardan eng nufuzlilari chavandozlik, chim ustida xokkey, engil atletika, futbol, tennis, sport gimnastikasi, boks va boshqalardir.

Andijonda zamonaviy sport inshootlari qurilgan. Zamonaviy ta-lablarga javob beradigan, turli darajadagi xalqaro musobaqalar o'tka-ziladigan tennis korti majmui, o'z bag'riga o'n ming tomoshabinni sig'-dira oladigan jahon standarta darajasida qayta qurilib, 1998 yilda ishga tushgan "Navro'z" futbol o'yingohi, "Yambol" sport majmui, chim ustida xokkey bo'yicha "Xalqlar do'stligi" stadioni, shaxmat-shashka klubi, gimnastika majmui, suzish havzalari va boshqa sport inshootlari Andijon sporti faxri hisoblanadi.

Viloyatda 70 ta bolalar-o'smirlar sport maktabi ishlab turibdi, ularda 32 ming o'quvchi turli sport turlari bilan shug'ullanmoqda. 32 maktabda futbol bo'limi mavjud. Olimpiya o'rinbosarlari bilim yurti va ixti-soslashtirilgan bolalar-o'smirlar sport maktablari esa yuqori malakali sportchilarni tayyorlaydigan asosiy maskandir.

Jismoniy tarbiya ommaviyligining o'sishi, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning amaliy vazifalarini hal qilishga jamo-atichilikni, homiylarni jalb etish viloyat sportchilari mahoratini oshirish poydevori hisoblanadi.

Tennis bo'yicha viloyat bolalar-o'smirlar sport maktabi, olimpiya o'rinbosarlari bilim yurtida tennis bo'limi ishlab turibdi, ularda iqtidorli bolalar shug'ullanmoqtsalar. 1995 yil sentyabr oyida tashkil qilingan, viloyatda tennischilarni tayyorlash va ommaviy tennisni rivojlan-tirish markazi hisoblangan "Andijon" tennis klubida ham yuqori malakali sportchilarni tayyorlash, ham ommaviy tennis bilan shug'ullanish uchun jahon talablariga javob beradigan barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Andijonda tennis mustaqillik tufayli, shaxsan Islom Abdug'anievich Karimovning tashabbusi bilan vujudga keldi.

Andijon quruvchilari hashamatli va noyob inshootlarni tez hamda jahon andozasiga moe sifatli bunyod etishga odatlanib bormoqdalar. "Andijon" tennis klubi kortlari 14 oyda qurib bitkazildi, 1995 yil dekabr oyida Andijon shahrida jahon talablariga to'la javob beradigan, go'zal

tennis markazi bunyod etildi. Uning ochilish marosimida Uzbekistan Respublikasi Prezidenti Islom Karimov va uning mehmo-ni — Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Asqar Akaevlar qatnash-dilar. Bu dargohdan O'zbekiston shuhratini butun jahonga yoyadigan mash-hur sportchilar etishib chiqishiga shubha yo'q.

1995—1996 yillar davomida mingdan ortiq o'quvchi yoshlar va bolalar maxsus ko'rikdan o'tkazilib, ulardan 300 ga yaqini tanlab olindi va ular tennis bilan shug'ullanib kelmoqtsalar.

Respublika hukumati hamda viloyat hokimining bir qator qarorlari bilan tennisni ommaviylashtirish va yanada rivojlantirishga katta ahamiyat berilmokda. Viloyat hokimi sovrini uchun o'tkaziladigan "Ibrat" tennis turnirlarida har yili 150 dan ortiq rahbar xodimlar ishtirok qilmoqda-lar, ulardan 50 ga yaqini tennis bilan muntazam shug'ullanib kelmoqtsa.

Andijon tennis inshooti zamon talabi darajasidagi, xalqaro ando-zadagi kortlardan bo'lib, unda har yili professional tennischilarning xalqaro turnirlari muntazam o'tkazib kelinmoqtsa. 1996 yili o'tkazil-gan "Chellenjer" turnirida jahonning hamma qit'alaridagi 26 davlat-dan vakillar ishtirok etishdi. 1997, 1998, 1999 yillari o'tkazilgan xalqaro "Satellit" va "Istiqbol" turnirlarida ham 20 ga yaqin davlat-lardan vakillar qatnashib, chiroyli tennis o'yini namoyish qildilar. Bu xalqaro turnirlardagi katta raketka ustalarining o'yinlari andijonlik yosh o'quvchi tennischilar uchun katta mahorat maktabi bo'lib xizmat qilmoqda. Hozirgi kunda tennis klubida 150 ga yaqin yoshlar muntazam shug'ullanib kelmoqtsa, ularga 5 nafar murabbiylar saboq beryapti-lar. O'quvchilar orasida Respublika musobaqalari sovrindorlari bor.

Yosh tennischilardan X.Mirzaev, D.Orazaliev, T.O'ktamov, va ayniqsa, qizlardan Feruzaxon G'ofurovalarning mahorati tabora ortib bormoqtsa. Ular bir necha bor respublika va xalqaro yoshlar turnirlari sovrindori bo'ldilar. Andijon vakillaridan birinchi bo'lib Feruzaxon G'ofurova professional tennischilarning xalqaro turniri — "Toshkent Oupen" musoba-qalarida ishtirok etib, Uzbekistan sport ustasi unvoniga sazovor bo'ldi.

"Andijon" tennis klubida har yili "Navro'z", "Mustaqillik" klub va viloyat federatsiyasi va tennis jamg'armasining ochiq birinchiligi turnirlari o'tkaziladi. Ularda respublikamiz va qo'shni davlatlardan vakillar kelib ishtirok qilmoqdalar. Havaskor tennischilar uchun "Ib-rat", "Ota-ona va bola", "8 Mart sovrini uchun", ayollar o'rtasida ham bir qator musobaqalar muntazam ravishda tashkil qilinib kelinmoqda.

"Andijon" tennis kortida 14 ta maydon mavjud bo'lib, barcha yoshda-gi tennis muxlislari uchun hamma shart-sharoitlar mavjud, kerakli mutaxassislar doimo xizmatda.

Yurtboshimiz Islom Karimov: "Amur Temur bobomizning chuqur ma'no-mazmunli iborasini kullab —"Kimki bizning kuch-qudratimizni bilmoqchi bulsa. Uzbekistan paxlavonlarining jahon sport maydonlarida erishgan yutuk zafar-lariga e'tibor bersin, anglab olein", deb bugun baralla aytishimiz mumkin".— degan edilar.

Buning tasdig'i o'laroq, AQShning Xyuston shahrida o'tkazilgan ja-hon chempionatida andijonlik bokschilarimizdan Muhammadqodir Ab-dullaev va O'tkir Haydarovlar oltin medal, To'lqinboy Turg'unov esa kumush medal sohibi bo'lganlar.

Umumjahon hisobida Uzbekistan AQSh, kubaliklardan so'ng uchinchi o'rinni egalladi. Vatanimiz charm qo'lqop ustalari AQSh va Kuba boks-chilarining doimiy raqiblariga aylanishdi. Endi yurtimiz shuhratini baland etgan chempionlarimiz bilan butun jahon "o'ylab gaplashadigan" bo'lib qoldi. Butun mamlakat o'z qahramonlarini olqishladi.

MUHAMMADQODIR ABDULLAEV 1972 yili Andijon shahrida tu-g'ilgan. Ustozlari M. Ko'chqorov, A. Razmaxov, V. Zolotaryovlar. 15 yildan buyon boks bilan shug'ullanadi. 1998 yilgi jahon kubogi bosh sovrini sohibi, XSh Osiyo o'yinlari g'olibi, jahon chempionatidagi ajoyib g'alabasi uchun Vatanimizning yuksak mukofoti —"El-yurt hurmati" ordeni bilan taqdirlandi. 63,5 kg vazn toifasida jahon chempionidir.

2000 yilda Avstraliyaning Sidney shahrida bo'lib o'tgan XXVII yozgi olimpiada o'yinlarida Andijon viloyatidan 7 nafar sportchi ishtirok etdi.

Muhammadqodir Abdullaev olimpiada chempioni bo'lib, oltin medal bilan taqdirlandi. U Vatanimizning boks bo'yicha birinchi olimpiada chempionidir.

XXVII jahon olimpiadasi oltin medal sohibi, jahon chempioni, jahon kubogi, Osiyo birinchiligi g'olibi, O'zbekistonda xizmat ko'rsat-gan sportchi andijonlik Muhammadqodir Abdullaev sportdagi o'z taq-dirini professional boks bilan bog'lashga ahd qildi. U professional boksdagi 8 nafar jahon chempioni tayyorlagan amerikalik mashhur mene-ger Kenii Adame rahbarligida shug'ullana boshladi. Muhammadqodir Abdullaevning Sidney olimpiadasida erishgan g'alabalaridan so'ng Kenii Adame u bilan ishlashni orzu qilgan edi.

2001 yilning aprel oyida jahon axborot agentligi, televizion kom-paniyalar Muhammadqodir Abdullaevning professional ringdagi birinchi g'alabasi haqida xabar tarqatdilar. Las-Vegasda o'tkazilgan jangda Muhammadqodir Abdullaevning raqibi Amerikalik Vashington bo'ldi. Jang 12 raund davom etishi kerak edi, biroq andijonlik "charm qo'lqop" ustasining shiddatli hujumlaridan so'ng 4 raunddayoq jang to'xtatildi. Aniq zarbalar hisobi Muhammadqodir Abdullaev foydasiga 40:26 edi.

O'tkirbek Haydarov 1974 yilda Andijonda tug'ilgan. U ilk boks sir-larini taniqli murabbiy Feliks Pakdan o'rgandi. Shundan so'ng Andijon olimpia o'rinbosarlari bilim yurtida o'z bilim va mahoratini oshirdi. U uch karra Uzbekistan chempioni. AQShda o'tkazilgan jahon chempiona-tida 75 kg vazn toifasida oltin medalni qo'lga kiritdi. Muvaffaqiyat-lari uchun "Uzbekistan iftixori" unvoni bilan taqdirlandi.

To'lqinboy Turg'unov 1977 yilda Qorasuv shahrida tug'ilgan. 1989 yildan buyon boks bilan shug'ullanadi. Bu yo'ldagi birinchi ustoz To'lqin

Xo'jamberdiev. Andijon olimpiada o'rinbosarlari bilim yurtida tah-silni ustozlari M.Qo'chqorov va A.Razmaxovlar qo'lida davom etirgan. Jahon chempionatining 57 kg vazn toifasida kumush medal sovrindori. Hukumatimiz tomonidan "O'zbekiston iftixori" unvoni bilan taqdirlandi.

Mars Qo'chqorov. 1957 yilda tug'ilgan. Andijon shahar Respublika olimpiada o'rinbosarlari bilim yurtining boks bo'yicha bosh murabbiy-si. Unga 1998 yili "Uzbekistan Respublikasida xizmat ko'rsatgan sport ustasi" degan unvon berilgan.

Razmaxov Aleksandr Anatolevich 1963 yilda Andijon shahrida tug'ilgan. Respublika olimpiada o'rinbosarlari bilim yurtining boks bo'yicha murabbiysi. 1998 yili "Uzbekistan Respublikasida xizmat ko'rsatgan sport ustasi" degan unvon berilgan.

Zolotaryov Valentin Antonovich 1926 yili Andijon shahrida tug'ilgan. Uzbekistan Davlat jismoniy tarbiya va sport institutini bitirgan. 1970 yildan boshlab Andijon shahridagi Respublika olimpiada o'rinbosarlari bilim yurtida murabbiy lavozimida ishlab kelmoqda. Ruslan Chagaev, To'liq Turg'unov, Timur Tulyakov, Sergey Mixaylov va yana bir qator mohir sportchilarni tarbiyalashda uning xizmati bor. 1999 yil 29 sentyabrda 1-darajali "Sog'lom avlod uchun" ordeni bilan taqdirlandi.

Andijon viloyatida jismoniy tarbiya va sport mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng yangi bosqichga ko'tarila boshladi. Ayniqsa, sportning ommaviylashishi uchun katta ishlar amalga oshirildi. Mustaqillikning o'tgan o'n yilga nazar tashlasak, viloyatda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning asosi bo'lgan shart-sharoit, bazalar yaratish sohasida jadal ishlar olib borildi.

Masalan, 1991 yili viloyatda 20 ta o'yingoh va 470 ta sport zallari mavjud bo'lgan bo'lsa, hozir 30 ga yaqin o'yingoh, 520 dan ortiq sport zallari ishlab turibdi. Shuningdek, sportning basketbol, voleybol, qo'l to'pi kabi ommaviy turlarini rivojlantirish ham diqqat markazida turibdi. 1991 yilda 693 ta basketbol, 1050 ta voleybol hamda 320 ta qo'p to'pi maydonlari mavjud edi. Mustaqillikning 10 yilligiga kelib basketbol maydonlari 750 taga, voleybol maydonlari 1220 taga, qo'l to'pi maydonlari 380 taga etkazildi.

Futbol sportning eng ommaviy turi ekanligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Darhaqiqat, ko'cha va mahallalarda to'p surayotgan o'smir va yoshlarni ko'rib zavqlanasan kishi. Ularga e'tibor bilan qarab, etarli sharoit yaratib berilsa, minglab farzandlar ham jismonan, ham aqyaan etuk insonlar bo'lib voyaga etadi. Shu nuqgai nazardan qaraganda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O'zbekistonda futbolni rivojlantirishning tashkiliy asoslari va tamoyillarini tubdan takomillash-tirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori muhim ahamiyat kasb etdi. Shu bois mamlakatimizda bo'lgani kabi Andijon viloyatida futbol maydonlari mustaqillik yillarida keskin ko'paytirildi. 1991 yili 300 ta futbol maktablarida eski uzbek yozuvi, odobnoma, inson va jamiyat, din tarixi va huquqshunoslik fanlari o'qitilishi yo'lga qo'yildi.

Viloyatdagi mavjud 742 ta maktabda 533676 nafar o'quvchi ilm sirlarini o'rganayotgan bo'lsa, 203 ta maktabda 9 ta fandan 263 ta chuqurlashtiрилgan sinflar tashkil qililib, ularga 7325 nafar o'quvchilar sinov asosida qabul qilindilar.

—1992 o'quv yilida viloyat umumta'lim maktablarining 9-sinfini 37288 nafar o'quvchi tamomladi, ularning 19573 nafari 10-sinfga tanlov asosida qabul qilindilar.

yilda Shahrixon shahar, Bo'z, Izboskan, Qurg'ontepa tumanlaridagi maktabdan tashqari muassasalarda milliy hunarmandchilikka oid ganch, o'ymakorlik, pichoqchilik, kosibchilik, kashtachilik to'garaklari tashkil qilindi.

Viloyatda yangi tipdagi ta'lim muassasalarini tashkil qilish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirildi va 1992 —1993 o'quv yilida 4 ta li-tsey va 4 ta gimnaziya o'z faoliyatini boshladi.

u O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 28 avgustdagi "Uzbekistan ijodkor yoshlarini davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash choralari to'g'risida"gi farmoniga binoan fan olimpiadalarini o'tkazishga alohida e'tibor berilib, iqqidorli o'quvchilarni tanlab olishda test sinovlari qo'llanildi.

Xalq ta'limi xodimlarining dam olishlarini yaxshilash maqsadida Xo'ja-obod tumanida 1992 yilda dam olish uyi tashkil qilindi va 300 dan ortiq xodimlarning salomatligini tiklashga erishiddi. Marhamat tumanida xalq ta'limi xodimlari uchun 200 o'rinli profilaktoriya kurilib bitkazildi.

Maydoni, 98 ta kichik futbol maydoni bo'lgan bo'lsa, hozir 601 ta futbol maydoni, 215 ta kichik futbol maydoni ishlamokda.

Andijonliklar tennisga juda qiziqadilar. Ular o'zlari uchun qulay vaqt bo'yicha tuzilgan reja asosida tennis kortlariga borib shug'ullanadilar. Andijonda bu harakat yil sayin odat tusiga kirib bormoqda. Masalan, 1991 yilda atigi 7 ta tennis korti mavjud bo'lib, ular ham ko'p vaqt huvullab yotar edi. Hozir esa 60 ta tennis korti bo'lsa ham gohida tig'izlik qilib qoladi.

Ayniqsa, kelajagimiz bo'lgan bolalarning sport bilan shug'ullaniishi uchun etarli sharoitlar yaratishga alohida nazar bilan qaralmoqda. Bolalar sport maktablari mustaqillik yillarida 20 taga ko'paytirilib, ularning soni 62 taga etkazildi.

Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, uning ommaviyligini ta'minlashning yuqorida sanab ko'rsatilgan asoslari vujudga keltirilishi bilan shug'ullanuvchilar soni ham keskin ortib bordi. Masalan, mustaqilligimizning birinchi yilida muntazam shugullanuvchilar soni 465 ming nafarni tashkil etgan bo'lsa, hozir bu raqam 650 ming nafardan ortib ketdi. 1991 yilda 147 ming nafar kishi turli to'garaklarda shug'ullangan edilar. Hozir bularning soni 180 mingdan oshdi.

Mustaqillik yillarida Andijon viloyatida 15 nafar xalqaro sport ustalari etishib chiqdi. Mustaqil mamlakatimiz terma jamoasi tarkibida hozir 150 nafardan ortiq Andijon sportchilari bor.

Viloyatda ijtimoiy soxalar rivojlanishining asosiy muammolari.

Islom Karimov doim ta'kidlab kela-yotgan ezgu fikrlardan biri - «Islahot islohot uchun emas, avvalo, inson uchun. uning manfaatlari uchun»dir. Ana shunday ezgu ishlarni Andijon misolida ham ko'ramiz.

Istiqlol yillarida andijonliklarga tibbiy, madaniy-maishiy xizmat ko'rsa-tishning mazmun va shakli o'zgardi.

Hozirda Andijonda 46 ta shifoxona, 390 ta ambulatoriya-poliklinika, 39 ta qishloq vrachlik punkta aholiga tibbiy xizmat ko'rsatmoqda. Ularda 6184 nafar shifokor va 23685 nafar o'rta tibbiyot xodimlari inson salomatligi yo'lida samarali faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Viloyat tibbiyot muassasalariga 2009 yilda 90 mlrd 670 mln so'm mablag' ajratildi. «Qishloq taraqqiyoti va fa-rovonligi yili» Davlat dasturidagi vazifalar ijrosini ta'minlash, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini yaxshi lash maqsadida 3,2 mlrd so'm lik ishlar amalga oshirildi. Shu jumladan. markazlashgan mablag'lar va xalqaro loyihalar asosida 512 mln so'mlik tibbiy apparatlar, dori-darmonlar va jihozlar keltirildi. «Salomatlik-2 »loyihasi doirasida qishloq vrachlik punktlariga yaqin 257 ming AQSh dollari miqdorida tibbiy jihozlar keltirildi. Mavjud 339 ta KVPning 225 tasi ta'mirdan chiqarildi. 20 ta andozaviy KVP tashkil qilindi. Ana shu maqsadlarda 519 mln. so'm sarflandi. Vrachlarga uy qurish rejalashtirilgan 65 ta KB P dan 21 tasida quri lish, ta'mirlash ishlari yakunlandi.

Uzbekistan Respublikasi Shoshilinch Tibbiy yordam markazi Andijon viloyat filiali 1999-2000 yillarda sobiq viloyat shifoxonasini rekonstruktsiya qilish negizida 2000 yili tashkil qilingan. 2000 yil fevralida neyrot travmatologik korpusi ochiladi, 2002 yil 2 aprelda shifoxona to'la ishga tushirilgan.

Shifoxona 350 o'ringa mo'ljallangan, kattalar uchun 95 o'rin va qo'shimcha 12 o'rinli uchta reanimatsiya bo'limlari mavjud. Filialda qon quyish bo'limi, ichki dorixona, MSB, oshxona va yordam-chi bo'limlar aholiga xizmat qilmokda.

Filialda 265 shifokor, 374 o'rta tibbiy xodim, 290 kichik tibbiy xodim va xo'jalik sohalarida esa 173 xodim mehnat qilmoqda.

Aholi salomatligini yaxshilash yo'-nalishida hozir viloyatimizda Arab iqtisodiy rivojlantirish bankining Kuvayt fondi, Germaniya Texnik ham-korlik tashki loti, Yaponiya elchixona-sining kichik grantlar dasturi, Evropa Hamjamiyati, B MTning bolalar jamg'armasi (YuNISEF) va aholishu-noslik jamg'armasi bilan hamkorlikdagi hamda boshqa loyihalar asosida amaliy ishlar davom ettirilmoqda.

Ana shunday harakatlar samarasini xalq ta'limi tizimida ham ko'rish mumkin.

Hozirda viloyatdagi 740 ta umumiy o'rta ta'lim maktablarida (jumladan, 49 ta ixtisoslashgan maktab internat, 10 ta maxsus maktab internatlar)da andijonliklarning 431549 nafar o'g'il va qizlari ta'lim olmoqda, 117 ta kollej va 12 akademik litseyda 133 ming 302 o'quvchiga ta'lim-tarbiya

berilmokda. 2009 yilda viloyat bo'yicha umummilliy dastur doirasida 114 ta umumta'lim maktabida kurilish, ta'mirlash ishlari olib borildi. Ikkita yangi maktab barpo etildi. Buning uchun byudjet hisobidan 31 mlrd so'mdan ortiq mablag' sarflandi.

Mazkur maktablar moddiy-texnika 6a-zasini mustahkamlash uchun 11,5 mlrd so'mlikdan ziyod mebel, o'kuv laboratoriya asbob-uskunolari, kompyuter texnikasi va sport anjomlari olingan.

Bundan tashqari, viloyatimizdagi saxo-vatli tadbirkorlar, korxona mutasad-dilari ham ta'lim tizimiga yaqindan yordam bermoqdalar. Masalan, Shahrixon tumanida tadbirkor aka-uka Samatovlar shaxsiy mablag'lari evaziga 316 o'rinli maktab-bog'cha majmuasini qurib foydalanishga topshirdilar. U ni so'nggi rusumdagi o'quv laboratoriya qurollari, asbob-uskunalar barcha anjomlar bilan ta'minlashni ham bu ikki tadbirkor amalga oshirdilar. Bunga 1 mlrd 261 mln so'm sarflandi.

2009 yilning o'zida 274 ming 530 nafar pensioner va ijtimoiy nafaqa oluvchilar uchun 310 mlrd 554 mln 938 ming 701 so'm mablag' sarflandi. Ayni vaqtda voyaga etmagan farzandlari bor oilalarga 36 mlrd 10 million 897 ming so'mdan ziyod, 2 yoshgacha bo'lgan farzand tarbiyasi bilan mashg'ul onalarga 77 mlrd 411 mln 834 ming so'mdan ortiq nafaqa to'landi. Bunday ijtimoiy himoyalash 2010-2011 yillarda ham keng ko'lamda amalga oshiriladi.

2009 yilda nogironlarga 208 ta ara-vacha, 196 tadan ortiq boshqa texnik vositalar etkazib berildi. 1500 nafar keksa otaxon va onaxonlarga mam-lakatimizning turli dam olish maskanlarida salomatliklarini yaxshilash uchun homiylar tomonidan katta miqdorda mablag' ajratildi.

Viloyatimizda urush va mehnat fax-riylarini ijtimoiy himoyalash, ularning qadr-qimmatini joyiga qo'yish-ga katta e'tibor qaratilmoqda. Buyuk g'alabaning 65 yilligi bayrami munosa-bati bilan bir qancha tadbirlar amalga oshirildi. Hozirda viloyatimizda 738 nafar, jumladan, Andijon shahrida 107 nafar Ikkinchi jahon urushi ishtirokchilari yashamoqdalar. Prezi-dentimiz I. A. Karimovning Farmoni bilan ularning har biri 200 ming so'm miqdorida mukofot puli bilan taqdirlandilar, joylarda ularning sha-rafiga atalib uchrashuvlar, tantanalar o'tkazildi, ularning bosib o'tgan shon-li kurash yo'li, dushmanga qarshi jasoratlari, yurtga bo'lgan fidoyiligi

keng xalq orasida targ'ib va tashviq qilindi, maqolalar, esdaliklar ommaviy axborot vositalarida keng yoritildi.

Viloyatda 2009 yili 77,8 mingdan ortiq ish o'rinlari yaratildi, shundan 27 mingga yaqini kichik biznes va kichik tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga tashkil etildi.

Andijon aholi zich yashaydigan viloyat bo'lgani, band lik masalasi ham g'oyatda o'tkirdir. Buni e'tiborga olib, Islom Karimovning sa'y-harakatlari bilan viloyatning chegara hududlarida yashovchi 4300 ga yaqin oilaga chorvachilik, milliy hunarmandchilik va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun 2,5 milliard so'm miqdorida imtiyozli kredit ajratilib, 9,5 ming kishi ish bilan ta'minlandi. Bu oilalar bir yil mobaynida umumiy hisobda 1 milliard 105 million so'm daromad

olishga erishdi. 2006 yilda ham bu maqsadlar uchun «Bandlik» jamg'armasidan 1 milliard 100 million so'm mablag' ajratildi. Bularning bar-chasi andijonliklar manfaatiga, ularning farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Xullas, Prezidentimiz asoslab bergan besh tamoyildan biri kuchli ijtimoiy himoyalash siyosatidan andijonliklar to'la-to'kis naf ko'rmoqdalar.

OBOD MAHALLALAR

Hozirgi kunda Andijon viloyatida 861 ta mahalla, 5 ta shaharcha, 95 qishloq fuqarolar yig'inlari faoliyat ko'rsatmoqda. Endilikdamahallahayotning eng qaynoq nuqtasi, jamiyat aholisining turli toifalari manfaatlari uyg'unli-gini ta'minlaydigan, fuqaro larning kundalik hayotida xilma-xil masala va muammolarni birgalikda hal qilinadigan obod bir maskandir. Mahalla boshqaruv shakllaridan biridir. U orqali fu-qarolar ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy jarayonlarda faol ishtirok etmoqda. Istiqlool yillarida Andijon mahallalari hududida jami 721 ta zamonaviy jihozlangan mahalla guzari bunyod etildi. Ular mahalla hayotida muhim o'ringa egadir. Fuqarolar yig'in-lari faoliyati samaradorligini oshirish, aholining madaniy-maishiy ehtiyoj-larini ta'minlashda ham ularning xiz-mati kattadir.

Uchrashuvlar va mulohazalar, kundalik tadbirlar, jonli suhbatlar, shaxmat va shashka musobaqalari, dolzarb maqolalar bo'yicha fikr almashuv lar, she'rxonlik va kitobxonlik, san'at kechalari o'tkazilmoqda. Bu o'rinda Andijon shahridagi «Mirpo'stin», «Shur-bulok» , Andijon tumanining «Sharq yulduzi», «Cho'lpon», «Xortum», Buloq-boshi tumanidagi «Shirmonbuloq», Asaka shahridagi «Do'stlik», Oltinko'l tumanidagi «Qayirma» mahallalari guzarlari, zamonaviy binosi, mahalla-larining saranjom-sarishtaligi fuqaro-larning ahilligi va faolligi bilan, o'z faoliyati bilan o'zgalarga ibrat bo'lmoqda.

Davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikda o'tkazilayotgan har yilgi fuqarolar yig'ini faoliyatiga oid o'nlab ko'rik-tanlovlar, sport muso-baqalarida Andijon shahridagi Imom Buxoriy nomidagi mahalla oqsoqoli Muhammadjon Ismoilov, Soy mahalla oqsoqoli Alijon Mahmudov, Andijon tumanidagi «Qayrag'och» mahallasi oqso-qoli Muhammadjon To'ychiev, Asaka shahridagi Ulug'bek nomidagi mahalla raisi Kimyoxon Kamolova, Buloqboshi tumanidagi Yangiariq mahallasi raisasi Ominaxon Razzoqova, Marhamat tumanidagi Mingtepa mahallasi raisasi Xay-rixon Egamberdieva faollik bilan qatnashdilar.

Mahalla faollaridan Vatanimizning yuksak orden va medallari bo'lmish «El-yurt hurmati» ordeni bilan Jalolquduq tumanidagi Usmonjon Karimov, «Dust-lik» ordeni bilan Andijon tu mani dan Ikromjon Ashrabiev, « Shu hrat» medali bilan Xo'jaobod tumanidan Ra'-noxon Madrahimova, Baliqchi tumanidan Komiljon X,aydarovlar taqdirlan-ganlar.

Jalolquduq tumanidagi Teshiktosh qishlog'i fuqarolar yig'ini raisasi Arofatxon Ikromova ham ana shunday fidoyi insonlardan. Bu qishloqda beshta mahalla bor, chiroyli, shinam guzarlar shahar mahallalaridagi guzarlardan kam joyi yo'q.

Andijon mahallalariga tadbirkor va hunarmandlar yaqindan ko'mak ber-moqda. X,ar qaysi mahalla fuqarolar yig'inining o'ziga xos ishlab chiqarish va xizmat infratuzilmasi mavjud.

Andijon shahridagi 73 ta mahalla fuqarolar yig'iniga Bobur nomidagi

Andijon davlat universitetining 73 professor-o'qituvchilari, kafedra mudir lari, dekan lari, prorektorlari biriktirilgan bo'lib, ular mahalla fuqarolar yig'inlari rahbariyati bilan hamkorlikda mahallalarda ijtimoiy siyosiy, madaniy-ma'naviy, mafkuraviy sohalarda tizimli, muntazam ish olib bormoqda.

Istedodli olim Diloru Nabieva.

BUYUK KELAJAGIMIZ ISHONCHLI YOSHLAR QO'LIDA

Muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov alohida ta'kidlaganidek, biz farzand-larimizning nafaqat jismoniy va ma'-naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga etishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz.

Butun mam lakatimiz da bo'lganidek, Andijonda ham mustaqillik yillarida ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat masa-lalariga alohida e'tibor berilmokda.

Shu davr ichida Andijon viloyatida bu borada katta, salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Bugun Andijon viloyati aholisining 60 foizini yoshlar tashkil etmoqda. Kelajakda bu ko'rsatkich yanada ortadi. Shundan kelib chiqib, navqiron avlod vakillarining bilim olishi, kasb-hunar o'rganishi, ilm-fan, san'at va sport sohalarida o'z iste'dodlarini namoyon etishi va ro'yobga chiqarishi uchun barcha sharoitlar yaratildi.

2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy dasturi doirasida 5 ta yangi maktab qurildi, 20 ta maktab tubdan rekonstruksiya qilindi va kapital ta'mirlandi, zamonaviy talablar asosida jihozlandi.

Katta maktablar kapital ta'mirdan chiqdi, yangilari barpo etildi, ularning moddiy-texnik bazasi yanada mustahkamlandi. 2 ta akademik litsey, 13 ta kasb-hunar kolleji, 6 ta maktabda yangi sport zali va stadionlar ishga tushirildi.

Andijonda birinchi bo'lib «Sho'rbu-loq» mahalla fuqarolar yig'ini hududida yoshlar uchun zamonaviy sport akademiyasi hamda majmuasi qurilib ishga tushirildi.

Viloyatdagi akademik litsey va kasb-hunar kollejlari 80 mingdan ziyod talaba ta'lim-tarbiya topmoqda, ularga 5 mingdan ziyod malakali pedagog ta'lim bermoqda. Hozirda viloyatda Bobur nomli Andijon davlat universiteti, Muhandislik-iqtisodiyot instituti, Andijon davlat tillar pedagogika instituti, Tibbiyot hamda Qishloq xo'jalik institutlari mavjud. Ulardagi 20 ming talabaga 1,5 mingdan ortiq professor-o'qituvchilar ta'lim-tarbiya bermoqda.

Andijon davlat universiteti mam-lakatimizdagi otaxon oliy o'quv yurt-laridan biridir. Mazkur oliy ta'lim muassasasi Fargona davlat pedagogika instituti qoshidagi Andijon kechki pedagogika

instituti sifatida 1931 yili tashkil etilgan, 1936 yildan O'qituvchilar instituti, 1953 yildan boshlab esa Andijon davlat pedagogika instituti sifatida faoliyat ko'rsata boshladi. Uning moddiy-texnika va pedagogik xodimlari bazasida Namangan o'qituvchilar instituti (hozirdagi Namangan davlat universiteti), 1955 yili Andijon tibbiyot instituti, 1964 yili Andijon paxtachilik instituti (hozirgi Andijon qishloq xo'jaligi instituti), 1966 yili Andijon til-lar pedagogika instituti, 1981 yili Andijon iqtisodiyot instituti (1992 yildan Andijon muhandislik-iqtisodiyot instituti) tashkil topdi.

Uzbekistan Respublikasi Prezidenti Farmoniga asosan 1992 yil 15 martda Andijon pedagogika instituti negizida Andijon davlat universiteti tashkil etildi. Hozirgi kunda universitetda matematika, amaliy matematika, fizika, kasb ta'limi, kimyo, biologiya, tarix, uzbek filologiyasi, pedagogika va psixologiya, geografiya, musiqiy ta'lim, tasviriy san'at va muhandislik grafikasi, jismoniy madaniyat va bolalar sporti, mehnat ta'limi, milliy g'oya: ma'naviyat asoslari va huquk ta'limi, ona tili va adabiyoti (qirg'iz tili va adabiyoti), maktabgacha ta'lim va bolalar sporti, ekologiya va tabiatdan foydalanish, boshlang'ich ta'lim va tarbiyaviy ish kabi ixtisosliklar bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanmoqda. Universitet tarkibida 7 ta fakultet, 28 ta kafedra, Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi, magistratura, aspirantura, doktorantura mavjud bo'lib, 5000 ziyod yoshlarga 30 dan ortiq fan doktorlari, professorlar, 150 ga yaqin fan nom-zodlari, dotsentlar ta'lim-tarbiya ber-moqda. Universitetning serqirra faoliyatida T.Madumarov, S.Zaynobiddinov, A. Nurmonov, I. Askarov, A. Sobirov, R. Aliev, I. Abdug'ofurov, R. Shamsutdinov, I. Alimov, 3. Kutiboev, A. Dariyev, uyg'ur shoirasi, professor H. Solihova, L. Saidboeva, Sh. Saidxonova, S.Mirzaeva kabi professor-o'qituvchilar-ning xizmatlari kattadir.

Andijon tibbiyot instituti - umumiy amaliyot vrachi va vrach-pediatrlar tayyorlaydigan oliy o'quv yurti 1955 yilda tashkil etilgan. Institutda davolash, pediatriya va vrachlar malakasini oshirish fakultetlari, 55 ta kafedra, oliy malakali hamshiralarni tayyorlash bo'limi, tayyorlov bo'limi, litsey-internat, aspirantura va doktorantura, markaziy ilmiy tadqiqot laboratoriyasi, klinik laboratoriyalar, o'quv muzeylari, axborot-resurs markazi mavjud.

Institut qoshida 1971 yilda professor Yu. Otabekov nomidagi klinik kasalxona tashkil etilgan. Institut negizida respublika limfalogiya va vertebrologiya ilmiy markazlari, ichki kasalliklar bo'yicha ixtisoslashgan ken-gash tashkil etilgan. Bu oliy o'quv yurtida 2000 dan ortiq talabalarga 50 yaqin fan doktorlari, professorlar, 200 ga yaqin fan nomzodlari, dotsentlar dare bermoqda.

Institut 2000 yilda yangi binoga ko'chib o'tgan.

Andijon qishloq xo'jaligi instituta - qishloq xo'jaligi mutaxassislari tayyorlaydigan oliy o'quv yurti, Andijon tumani Kuyganyor shaharchasida paxtachilik

instituti sifatida 1964 yili tashkil etilgan, 1992 yil 28 fevraldan Andijon qishloq xo'jaligi instituti maqomida faoliyat ko'rsatmoqda. Institutda 2000 dan ziyod talabalarga 10 ga yaqin fan

doktorlari, professorlar, 100 dan ziyod fan nomzodlari, dotsentlar dare bermoqda. Institutdagi 20 dan ortiq Isthlol kafedra 10 ga yaqin ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlamoqda. Bu-lar - agronomiya, meva-sabzavotchilik va tokchilik, o'simliklarni himoya qilish, ipakchilik, zootexnika, agroinjenerlik, suv xo'jaligi va melioratsiya, iqtisodiyot, buxalteriya hisobi, audit bo'yicha kasbiy tayyorgarlik ta'lim yo'nalishlaridir. Institut qoshida akademik litsey, litsey-internat va o'quv-ilmiy ishlab chiqarish xo'jaligi faoliyat ko'rsatmoqda.

Andijon tillar pedagogika instituti 1966 yil mayda tashkil topgan. Abdulhamid Cho'lponning 100 yilligi munosabati bilan 1997 yilda institutga uning nomi berilgan. Institutda 3 ta~ ingliz tili, roman-german ti ll ari, tillar fakulteta va 16 kafedra mavjud. Bundan tashqari, zamonaviy axborot markazi, kompyuter sinflar, laboratoriya, axborot-resurs markazi, fan kabinetlari, sport zali, suzish havzasi muhayyo. Institut tarkibida litsey, maktabgacha tarbiya muassasalari uchun ingliz tili bo'yicha murabbiy-treyneri hamda tarjimon ixtisosini beruvchi 2 yillik pedagogik kasb kurslari faoliyat ko'rsatmoqda. Institutda 2000 ga yaqin talabaga 10 ga yaqin fan doktori, professorlar, 50 dan ziyod fan nomzodi, dotsentlar dare bermokda.

Andijon muhandislik-iqtisodiyot instituti - iqtisodchi va muhandislar tayyorlaydigan oliy o'quv yurti. Andijon shahrida Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Andijon bo'limi negizida 1992 yilda tashkil qilingan. Andijon iqtisodiyot va boshqaruv instituti hamda Andijon muhandislar tayyorlash eksperimental o'quv-ishlab chiqarish markazi negizida 1995 yil 5 iyunda tashkil topgan.

Institutda faoliyat ko'rsatayotgan 3 ta fakultet, 15 ta kafedradagi 180 dan ziyod professor-o'qituvchi lar (6 nafari fan doktorlari, 75 nafari fan nomzodlari) 10 ta ta'lim yo'nalish bo'yicha (Iqtisodiyot, Menejment, Kasb ta'limi, Biznesni boshqarish, Moliya, Buxgalteriya hisobi va audit, G'aznachilik, Texnologik mashina va jihozlar, Transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash, Avtomobilsozlik va traktorsozlik) ta'lim bermoqda.

Kasb ta'limi yo'nalishi talabasi Rushana Rustamova 2008 yilda Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan.

Institutda 400 o'ringa mo'ljallangan 2 ta talabalar turarjoyi, 2 ta futbol maydoni, 2 ta sport zali, 3 ta oshxona hamda trenajyorlar zali va tennis korti talabalarga xizmat qilmoqda.

Istiqlol yillarida ilm-fan soha-sida yangi avlod shakllanib voyaga et-moqda. Bunday avlod Andijon oliy ukuv yurt larida ham shakllanmoqda. Birgina Andijon davlat universitetida tilshunoslik, vatan tarixi, biologiya, ximiya, fizika yo'nalishlari bo'yicha magistratura, aspirantura, doktorantura mavjudki, ilm-fanga qiziqqan iste'dod-li yoshlar ana shu fan yo'nalishlari bo'yicha fan magistri, fan nomzodi, fan doktori ilmiy darajalarini olish imkoniga ega bo'lmoqda. Ana shunday bilimli va iste'dodli yoshlardan biri Azamatjon Rahimov (ilmiy rahbari professor Abdulhamid Nurmonov), Xu rshi d Qu rbonov (ilmiy rahbari professor Rustambek Shamsutdinov) aspiranturaning 2 yilligi natijalari bo'yicha Uzbekistan Respublikasi Prezidenti

stipendianti ko'rik-tanlovida qatnashib, nu fuzli o'rin egal lab, faxriy yorliq va pul mukofotlariga sazovor bo'ldilar. Azamatjon Rahimov aspirantlik muddatini 2 yili to'lib-to'ymas dissertatsiyani himoya qildi. 2-kurs aspiranta Xurshid Qurbonov o'z ilmiy rahbari bilan hamkorlikda Toshkentda, Buxoroda bir nechta monografik tadqiqotlar, to'pamlar, maqolalar e'lon qildi. Moskvadagi nufuzli ilmiy jurnallarda maqolalari chop etildi.

Texnika fanlari nomzodi Nozim-jon To'xtaboevning ilmiy rahbari professor Ibrohim Askarov bilan ham-mualliflikda, umumta'lim maktablari-ning 9-sinflari uchun kimyo fanidan yozgan darsligi respublika tanlovida g'olib deb - topildi va minglab nusxada chop etildi.

Vatan tarixi yo'nalishi bo'yicha magistrant Hikmatilla Hoshimov uzbek-frantsuz qo'shma arxeologik ekspedi-tsiyasida qatnashib, Buxoro, Navoiy, Surxondaryo viloyatlaridagi neolit dav-rini o'rgandi va chet el olimlari bilan hammualliflikda ilmiy maqolalar e'lon qildi.

Aql-zakovatli, bilim va hunarda o'z iste'dodi va salohiyatini namoyon etayotgan bunday yoshlar Andijonda ko'p-lab topiladi.

Shulardan fan nomzodlari Erkin Yo'ldoshev, Manzura Yunusova, Uktam Ubaydullaev, 33 yoshida doktorlik unvonini olgan Diloru Nabieva, 25 yoshida fan nomzodi bo'lgan Dilfuza Nurmonova, fan doktorlari Salima Mirzaeva, To'libjon Ma'dumarov, Abduqodir Mamatqulov, Azizbek Ikromov, Diloromxon Asronqulova, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori Ziyoda Akbarova, Dilrabo Abdullaeva, Sayda Qulmatova, Dilfuza Matboboeva, Prezident stipendiantlari Sherzod Alimov, Doniyor Gilmanov kabi o'nlab iste'dodli yoshlarni keltirishimiz mumkin.

SPORT

2010 yil mart oyida Oqsaroyda Uzbekistan Bolalar sportini rivojlan-tirish jamg'armasi homiylik kengashining navbatdagi yig'ilishida Prezidentimiz «Sport - yoshlarni turli illatlardai saytaradigan, hal siluvchi ahamiyatga molik eng yaxshi vositalardan biridir. Sport bilan shugullangan yigit-tsizlarning salomatligi yaxshi, fikri tinits bo'ladi, ular oilada soelom turmush tarzini shakllantirishga yordam beradi», deb alohida ta'kidladi. Ana shu maqsadda bundan 8 yil muqaddam tashkil etilgan jamg'armaning amaliy yordami bilan Andijonda 87 ta sport inshootlari bunyod etildi, shundan 55 ta sport zallari, 10 tasi bolalar sport majmualari, 5 tasi esa suzish havzalaridir.

Butun Uzbekistondagi kabi, buyuk istiqlol andijonlik sportchilar hayoti-da ham mutlaqo yangi sahifa ochib berdi. Prezidentimiz Islom Karimov andijonlik sportchi yoshlarning jahon maydonlarida qo'lga kiritgan g'alaba-larini faxru iftixor bilan tilga oladi. Yurtboshimiz Andijon viloyatiga «Amir Temur» ordenini topshirishga bag'ishlangan tantanali marosimda Andijon

yoshlarining sport sohasidagi zafarlarini shunday ta'riflagan edi: «Andijon hatsida gapirganda, sport hahida to'xtalmasdan iloji yo'ts, chunki viloyatda keyingi yillarda tom

Viloyat xalq ta'limi boshqarmasining "Xalq ta'limi fidoyisi" ko'krak nishoni ta'sis etildi.

Xalq ta'limi xodimlariga uslubiy yordam ko'rsatish, ilgor pedagogik tajribalarni yoyish va ijodkor o'qituvchilarga keng imkoniyat yaratish maqsadida viloyat xalq ta'limi boshqarmasining "Ziekor" haftanomasi ta'sis ztildi.

Xalq ta'limida uzoq yillar ishlagan, qarilik gashtini surayotgan xodimlarning turmush sharoitidan xabar olib turish, ularning boy pedagogik tajribalaridan foydalanish maqsadida viloyat "Faxriylar Kengashi" tuzildi.

Viloyatning qishloqlari va shahar tipidagi posyolkalarida istiqo-mat qiluvchi 34565 nafar o'qituvchi va tarbiyachilar kommunal xizmat to'lovlaridan to'la, shaharda yashovchi 11953 nafar o'qituvchi va tarbiyachilar esa 50 foizga ozod etildilar. 5026 nafar xalq ta'limi xodimlari-ning yashayotgan uylari esa shaxsiy qilib berildi, pedagog xodimlarning 4270 nafari shaxsiy uy qurish uchun er maydonlari va 90 nafari tayyor uylar bilan ta'minlandilar. 5680 nafar xalq ta'limi xodimlari shahar transportidan bepul foydalana boshladilar.

Shuningdek, 1991 yildan boshlab Kirg'iziston Respublikasi Jalol-obod va O'sh viloyatlari maorifchilari bilan o'zaro tajriba almashish, o'rganish va ta'lim-tarbiya ishlarini rivojlantirish maqsadida shart-nomalar tuzildi. Bunga asosan viloyatning barcha shahar va tuman Xalq ta'limi bo'limlari O'sh va Jalolobod viloyatlari shahar va tuman Xalq ta'limi bulimlari bilan muntazam hamkorlikni yulga qo'ydilar.

Prezident I.Karimov Farmoni bilan Uzbekiston Respublikasining "Sotom avlod uchun" ilkordeni 1993 yil 3 martda ta'sis etildi. "Sotom avlod uchun" ordeni ikki darajadan iborat.

1-darajali "Sotom avlod uchun" ordeni

2-darajali "Sotom avlod uchun" ordeni.

"Sotom avlod uchun" ordeni onalik va bolalikni muhofaza kilish-dagi, sog-lom avlodni kamol toptirish uchun eng yaxshi moddiy sharoit va alohida xizmatlari uchun o'rnak ko'rsatgan fukarolarga beriladi. 1995 yilda "Sotom avlod uchun" jurnali tashkil qilindi. 1994 yilda Poy-tug' shahridagi 1-maktab o'qituvchisi M.Kosimova birinchilar qatorida 1 darajali "Sog'lom avlod uchun" ordenini olishga sazovor bo'ldi. 1995 yilda I darajali "Sotom avlod uchun" orleniga viloyatimizdan Krugo-va Svetlana (Andijon sh. 7-maktab), Tohirjon Otajonov (Marhamat t. 23-maktab), Xolisbek Raximov (Andijon t. 6-maktab), U maral i Toshma-tov (Shahrixon t. 41-maktab) lar sazovor bo'ldilar.

Shuningdek, 1995 yilda 2-darajali "Sog'lom avlod uchun" ordenini olishga Asaka shaxridagi 9-gimnaziya direktori S.Voxidjonova, Xonobod shaxridagi 2-maktab o'qituvchisi Ismoilova

Fazilatxon, Balikchi tumanidagi 44-maktab o'qituvchisi Shokirjon Soliev va Buloqboshidagi 25-maktab o'qituvchisi Karimjon Ergashevlar muyassar bo'ldilar.

Istihol yillarida O'zbekistonda tennis rivojlanishi Andijonni mehmonnavoz shaharga aylantirdi. Chet ellik sportchilar.

ma'nodagi sport maktablari shakllanib bormotsda. Andijon sport maktabining yortsin namoyondalari olimpiya chempioni Muhammadtsodir Abdullaev, ja-xrn chempioni O'tkirbek Gaydarov, jaosrn kubogi eoliblari Antonina Moskaleva va Tatyana Levina kabi xaltsaro maydonlarda O'zbekistonimiz bayroeini baland ko'tarib kelayotgan mohir sportchilarimiz bilan butun xaltsimiz hatsli ravishda faxrlanadi».

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, respublikamizda o'tkazilayotgan «Umid nihollari», «Barkamol avlod», «Universiada» o'yinlari va boshqa sport bellashuvlarining o'tkazilishi yoshlari-mizning sog'lom, barkamol bo'lib yurt-ning haqiqiy egasi bo'lib etishishini ta'minlashga xizmat qilmoqda. 2010 yil Andijonda bolalar sporti yo'nalishida 13 ta yangi ob'ekt kurilmoqda va re-konstruktsiya qilinmoqda. Bu 4 ta musiqa va san'at maktabi, 4 ta basseyin, 3 ta maktabga qo'shimcha sport zal quriladi va kapital ta'mirlanadi, Ulug'nor tumanida markaziy o'yingoh kapital rekonstruktsiya kilinadi, Andijon sha-har Bo'ston dahasidagi Bolalar va o'smirlar sport maktabida 1-tip bolalar sport majmuasi yangidan quriladi, demakdir. Yuqorida aytilgan kurilish va ta'mirlash ishlariga viloyatimizdagi homiylar tomonidan 1,2 mlrd. so'm sarflansa, jamg'armaning respublika g'aznasidan 6,3 mlrd. so'm sarflanadi. Mintaqamizda yagona hisoblangan Andijon olimpiya zaxiralari kolleji bevo-sita davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan barpo etildi. Bugungi kunda bu dargohda 1036 nafar talaba bir qancha sport yo'nalishlari bo'yicha ta'lim olmoqda.

Hozirgi vaqtda viloyatda 30 ta stadion, 577 sport zali, 42 ta suzish havzasi, 90 ta tennis korti,

4660 sport maydoni mavjud. 1996 yili Andijonda zamonaviy, xalqaro miqyos-dagi tennis korti barpo etildi. Bu sport inshootining ochilish marosimida Prezidentimiz Islom Karimov shaxsan qatnashdi. Shundan beri Andijon tennis kortida xalqaro «Fyuchers» turniri o'tkazilib, dunyoning barcha burchaklaridan kelgan tennis ustalari tashrif buyurdi. Tennis havaskorlarining «Avesto» nom-li klubi 2000 yilda tashkil topib, uning a'zolari ko'plab turnirlarda qatnashmoqda. Uzbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 15 fev-raldagi farmoni bilan "Sog'lom avlod uchun" davlat dasturi qabul qilindi.

Sog'lom oilani shakllantirish va oilada yuksak ma'naviy-axloqiy muhitni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni takomillashtirish, davlat, jamiyat va oila tomonidan sog'lom farzand tug'ilishiga g'amxo'r-likni kuchaytirish, bolalarning salomatligini mustahkamlash, ta'lim olish va har tomonlama kamol topishi uchun sharoitlar yaratish dastur-ning asosiy maqsadi edi.

Viloyat xalq ta'limi boshqarmasining 2000 yil 10 martdagi hay'at yig'ilishida "Sog'lom avlod" dasturi chuqur o'rganilib, 4F01 raqamli qarori bilan 2000—2005 yillarga mo'ljallangan "Sog'lom avlod" dasturi qabul qilindi.

Sog'lom oilani shakllantirish maqsadida qarindosh urug'chilik o'rta-sida nikoh va erta turmush qurishning oldini olish bo'yicha targ'ibot ishlari olib borilmoqsa.

Jumladan, sog'liqni saqlash xodimlari va mahalla faollari hamkor-ligida 2000 yil davomida 400 dan ziyod davra suhbatlari, 450 dan ortiq uchrashuvlar tashkil qilindi. Yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida "Jinsiy hayot va reproduktiv salomatlik", "Nikoh va oila tushunchasi", "Oila a'zolarining xuquq va burchlari" mavzulari bo'yicha davra suhbatlari va sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi turli tadbirlar tashkil etildi.

"Oila" markazi viloyat bo'limi bilan hamkorlikda o'quvchi qizlar-ning ma'naviy, tibbiy va psixologik tomonlarini o'rganish bo'yicha maxsus so'rovnomalar tuzilib Qorasuv va Andijon shahridan 2 tadan maktablar faoliyati o'rganib chiqildi.

"Mehribonlik" uylari bitiruvchilari uchun "Muruvvat" yoshlar umumiy yotoqxonalarini tashkil etish bo'yicha joylardagi maxsus ta'lim muassasala-rida mehnat qilayotgan pedagog xodimlar, shuningdek, tarbiyalanuvchilarning ham takliflari o'rganilib, Respublika Xalq ta'limi vazirligiga fikr va mulohazalar berildi. Yotoqxonalarda ishlash istagini bildirgan tarbiyachi-lar haqidagi ma'lumotlar ham Xalq ta'limi vazirligiga taqdim etildi.

60000 nafar 1-sinf o'quvchilari 12 xil turdagi o'quv qurollari bilan bepul ta'minlandi. Viloyatdagi 1—4-sinflardagi kam ta'minlangan 28919 nafar o'quvchiga 4 xil turdagi qishki kiyim-boshlar tarqatildi.

475 ta maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni to'g'ri parvarish qilish bo'yicha "Yosh onalar maktablari", "Maslahat burchaklari" tashkil qilindi.

2000 yil noyabr oyida viloyat xalq ta'limi boshqarmasi va Sog'liqni saqlash boshqarmasi, Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazir-ligi, "Prokter end Gembl" kompaniyasi va "Sog'lom avlod uchun" jam-g'armalari hamkorligida ilmiy amaliy seminar o'tkazildi. Andijon shahridagi umumta'lim maktablarining 6-sinf o'quvchi qizlari, shuningdek, ularning onalari uchun "Balog'at davri" o'quv dasturi bo'yicha mashg'ulotlarni olib borish 2001 yil mart oyidan boshlandi.

Voyaga etmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikning oldini olish maqsadida har oy hay'at yig'ilishida 2 tadan tuman misolida tahlillar qilib borildi. Viloyat prokuraturasi bilan hamkorlikda Pax-taobod tumanida, ichki ishlar boshqarmasi bilan hamkorlikda Jalolqu-duqtumanida viloyat ilmiy-amaliy seminarlari o'tkazildi.

O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil etish bo'yicha umumta'lim maktablarida 1939 ta fan to'garagiga 40411 nafar, 1146 ta sport to'gara-giga 22204 nafar, 998 ta maktabdan tashqari muassasalardagi to'garak-larga 26952 nafar o'quvchi jalb qilindi.

Viloyat bo'yicha jami 49112 nafar 6 yoshli bolalar aniqlanib, ularni tibbiy ko'rikdan o'tkazish jadval asosida amalga oshirildi. 9846 nafar bola sog'lom deb, 39266 nafar bola 2- va 3-guruh bo'yicha kasal deb topildi va davolandi.

Maktab yoshidagi bolalarda stomatologik kasalliklarning oldini olish bo'yicha ishlab chiqilgan "Jozibador tabassum" o'quv sog'lomlashti-rish dasturida 6153 nafar 2-sinf o'quvchilari ishtirok etdilar. Dastur bo'yicha o'tkazilgan olimpiadada Andijon shahridagi 1-gimnaziyaning 2-sinf o'quvchisi Saodat Kahhorova golib deb topildi.

Xalqimizning eng azaliy va milliy urf -odatlaridan biri maktab-lar tashkil etish, yoshlarning bilim va tarbiya olishlari, etuk, komil insonlar bo'lib etishishiga baholi qudrat yordam berishdir.

Andijon viloyatida o'z shaxsiy jamg'armalari xisobidan qo'shimcha sinf xonalari qurib ularni jihozlab, maktablarning moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlashga imkon darajasida yordam berayotgan saxo-vatpesha homiy insonlar bor.

"Xalq ta'limi homiysi" nishondorlari.

Abdualil Sharipov - Bulqoboshi tumanidagi Shirmonbuluq

qishlog'ida o'z shaxsiy mablag'i hisobidan

1999 yilda 260 o'rinli maktab qurib foy-

dalanishga topshirdi.

Komiljon Otaxonov — Shahrixon tumanidagi 2-o'rta maktab

uchun 1999 yilda o'z mablag'idan o'n sak-kiz million so'm sarflab, yangi bino qurib berdi.

Masharif Jo'raev — Shahrixon tumanidagi Naynavo jamoa

xo'ja-ligidagi 42-maktab uchun 5 ta sinf xonasi qurib berdi. Qurilish uchun o'z mablag'idan 2,5 million so'm sarfladi.

Akbarali Usmonov — Shahrixon tumanidagi o'zi o'qigan mak-

tabning tomini shifer bilan yopish uchun 150000 so'm sarfladi.

Nizomjon Mirzaahmedov — Shahrixon tumanidagi 9-o'rta maktabni

bir necha yillar davomida ta'mirlashga yordam berdi, kam ta'minlangan oilalarning farzandlari uchun darsliklar olib berdi.

Hakimbek Adhamov — 21-, 25-, 30-maktablarni ta'mirlash ishlariga

hamda moddiy-texnik ta'minotini yaxshilashga yordam berdi.

Istiqlol yillarvda, viloyat xalq ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi ta'lim muassasalarining tarbiyalanuvchilari ta'lim va tarbiyaning barcha soha-larida maqtovg'a loyiq ishlarni amalga oshirmoqtsalar. Ayniqsa, Andijon viloyati vakillarining sport sohasidagi yutuqlari jahonga tanildi.

Saxovatli Andijon zaminidan olimpiada, jahon, Osiyo chempionla-rining etishib chiqa boshlagani ayniqsa, quvonchli holdir. Andijon viloyati xalq ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi Tennis Bolalar va o'smirlar sport maktabi tarbiyalanuvchisi, Andijon shahridagi 2-mak-tabning 8-

sinf o'quvchisi, stol tennisi bo'yicha jahon chempioni Temur Shirievning hayoti yoshlar uchun namunadir.

Temur Shiriev 1986 yil 30 martda Andijon shahrida tug'ilgan. 1992 yildan 1-sinfdan boshlab stol tennisi bilan shug'ullangan. Temurga otasi, bir necha marta Uzbekistan Respublikasi chempioni, Xalqaro tur-nirlar g'olibi, sport ustasi Rafiq Shiriev murabbiylik qiladi. Temur Shiriev yoshlar o'rtasida 8 marta (1994—1996) Respublika chempioni, 4 marta (1997—2000 yillar) Osiyo, O'rta Osiyo va xalqaro turnirlar-ning kumush, bronza medallari sohibi bo'ldi.

Temur Shiriev 1998 yildan hozirgi kunga qadar Uzbekistan Respublikasining stol tennisi bo'yicha terma jamoa a'zosi. 1998 —1999 yillarda Malayziya, Singapur davlatlarida o'tkazilgan Osiyo saralash turnirlari g'olibi.

U 1999 yil mart oyida Rossiyaning Barnaul shahrida o'tkazilgan stol tennisi bo'yicha Rossiya ochiq turnirida qatnashib, 2—o'rinni egalladi va kumush medal sohibi bo'ldi. Mazkur musobaqada Uzbekistan terma jamoa-sining umumjamoa hisobida 1 o'rinni egallashiga katta hissa qo'shdi.

1998 yil 28—31 iyul kunlari Shveysariyada bo'lib o'tgan I jahon yoshlar chempionatida yakka birinchilikda kumush, juft o'yinlarda oltin medal olib, jahon chempioni degan unvonga sazovor bo'ldi. Vatanimiz bayrog'ining yuqoriga ko'tarilishiga salmoqli hissasini qo'shdi.

Temur Shiriev 2000 yil avgust-noyabr oylarida o'tkazilgan Uzbekistan Respublikasi chempionatining g'oliblik shohsupasidan joy oldi.

Hozirgi kunda uning niyati "Olimpiada umidlari—2001" musobaqalarida g'olib bo'lish va 2004 yilda Gretsiyada o'tkaziladigan yozgi Olimpiadada qatnashishdir.

Andijon xalq ta'limining yorqin namoyandalaridan biri Izboskan tumanidagi 6-gimnaziyaning urdu tili o'qituvchisi, 2000 yil "Zulfiya" nomidagi Davlat mukofotining sohibi Jamilaxon Sotqinovadir. U Uzbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 6 mart qarori bilan davlat mukofotiga sazovor bo'lgan.

Jamilaxon Sotqinova 1976 yil 2 yanvar kuni Izboskan tumanidagi Moygir qishlog'ida oddiy shofyor oilasida tug'ilgan. 1993 yil mart oyida o'tkazilgan Respublika fan olimpiadasida "Sharq tillari" bo'yicha 1-o'rinni egallab, oliy o'quv yurtiga imtiyozli kirish huquqini qo'lga kiritdi. Shu yili maktabni tamomlab, Toshkent Davlat Sharqshunoslik institutiga imtihonlarsiz qabul qilingan.

1997 yil 20 avgustdan 1998 yil 8 mayga qadar Hindiston Respublikasining Jamia Milliya Islomiya (Islom Universiteti)da san'at magistraturasida tahsil oldi. 1998 yil 28 martda bo'lib o'tgan Xalqaro adabiyotchilar seminarida (Sakkau shahri, Hindiston) ma'ruza bilan ishtirok etdi.

1996 yilda Respublika Talabalar olimpiadasida g'olib chiqib, diplom bilan taqdirlangan.

1996—1997 yillarda O'zteleradioning "Osiyo bosh muharririyati"da urdu tilida eshittirishlar bo'limida dasturlovchi muharrir bo'lib ishlagan.

1998 yili Toshkent Davlat Sharqshunoslik institutini imtiyozli bitirib, Izboskan tumanidagi 6-ixtisoslashtirilgan maktab-internatida o'qituvchi vazifasida ishlab kelmoqda.

U rus, urdu, hind, ingliz tillarini mukammal biladi.

Buloqboshi tumanidagi 10-ixtisoslashtirilgan maktab-internat o'quvchisi Ziyaydinova Ra'noxon adabiyot fanini sevadi. U 1996 yilda o'tkazilgan "Yosh qalamkashlar" kurik tanlovining viloyat bosqichida g'olib bo'lgan. 1999 yili "Nafosat" ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida birinchi o'rin-ni egallab, "Nafosat" Respublika anjumanida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritdi. 2000 yilda viloyatda o'tkazilgan "Zehn" psixologik-testda eng yuqori natijani qo'lga kiritib, Respublika Tashxis Markazi buy-rug'i bilan Xalqaro Aerokosmik maktabda 10 kunlik kursda qatnashdi va "Ro'yobga chiqqan xayollar" nomli fantastik hikoyasi uchun Akademik Bondov fondi sovrini sohibi bo'ldi. Shu yili a'lo yutuqlari evaziga Respublika Tashxis Markazining "Iste'dod" bankida 0154 raqami bilan qayd etildi. 2000 yilda o'tkazilgan "Prezident asarlari bilimdoni" ko'rik tanlovining Respublika bosqichida 4-o'rinni egalladi. Uning "Is-tiqlol g'unchasi" nomli she'riy to'plami ham nashrdan chiqqan.

Andijon shahridagi 1-gimnaziyaning 11-sinf o'quvchisi Sardorbek Us-monov shifokorlar oilasida tarbiyalangan. 8-sinfda o'qib yurgan payti-dayoq ingliz tili bo'yicha o'rta maktab dasturlarini to'liq o'zlashtirib, viloyat fan olimpiadasining g'olibi bo'lgan. Barcha fanlarni a'lo darajada o'zlashtirishi bilan birga ingliz tilidan 11-sinf bo'yicha viloyat g'olibi bo'ldi, endi u viloyat sharafiga Respublika bosqichida himoya qiladi.

1999 yil 22 iyunda Respublika "Iste'dod" Markazi tomonidan o'tkazilgan tanlovda g'olib bo'lib, "Zehnli o'quvchi" nishonini oldi. 2000 yil 8—9 noyabr kunlari Toshkent shahrida o'quvchilar o'rtasida o'tkazilgan "Milliy debatlar programmasi"da qatnashib 3-o'rinni egalladi. Bilimdon va ijodkor o'quvchi sifatida tanildi. Uning ingliz tili fani bo'yicha tuzgan 500dan ortiq testlari Davlat Test Markaziga tavsiya etildi.

AHOLIGA XIZMAT KO'RSATISHDA SHAHAR ATROFI MUAMMOLARI (SHAHAR ATROF ZONALARIDAGI MUAMMOLAR).

Ulug qirg'iz adibi aytganidek, shaharlar bu, sayyoramizning tinchligi, shaharlar bu, bizning kelajagimiz. Shaharlarni ko'zgu desak, mubolag'a bo'lmas. Chunki, biror jamiyatning rivojlanishiga yoki bugungi- kun taraqqiyotiga baho beradigan bo'lsak, uning shaharlariga qarab xulosa qilamiz. Xo'sh, shaharlar qanday paydo bo'lgan. Avvalo "shahar" degan so'zning o'zi qanaqa ma'noni anglatadi. Sayyoramizning turli mamlakatlarida va turli davrlarda shaharlar haqidagi tushunchalar ko'p marta o'zgaradi. Shuning uchun ham "shaharlar"ni tasavvur qilish tushunchasi xilma - xildir. "Shahar" tushunchasi bilan aholi punktlari xududidagi aniq chegaralarning alohida shakllari uyushdi. Ana shunday aholi punktining tashqi ko'rinishining birinchi belgisi shahar devori (qo'rgoni) bo'lib, u mudofaa maqsadi uchun xizmat qilish bilan birga shahar yadrosining asosiy chegarasi xisoblangan. Masalan, qadimda eng mashhur bo'lgan, aholisi asosan dehqonlarni tashkil etgan shaharlarni ham, agarda biz hozirgi davr o'lchovi bilan qaraganimizda shahar aholi punktlariga qo'shmagan bo'lar edik. Shunga qaramay shahar tushunchasi bilan bog'liq tipni xususiyatlarni ajratish mumkin. Agar nemislar uchun shaharni belgilaydigan so'z shtadt (ziadi) bo'lsa, ingliz tilida (ioshp, si) atamasi shaharni anglatadi: Frantsuzlarda ham (snu) so'zining o'zi shaharni ifodalaydi. Shvedcha (zias, ien)- so'zi ma'lum klass shaharlarni ifoda etsa, (bu) so'zi qishloqni anglatadi. Rus tilida "shahar" so'zi tarixan o'ralgan, to'silgan dushman, yovlar hamlasidan saqlanish maqsadi bilan bog'liq bo'lgan aholi punktini ifodalaydi. Rossiyada XVIII asr boshlarida atrofi o'ralgan -to'silgan joylar, qo'rg'onlar shahar hisoblangan. Shahar nima? Shahar bu, yirik aholi punkti, sanoat tashkiliy ho'jalik, boshqarish, madaniy, transprt (qishloq xo'jaligi bo'lmagan) funktsiyalarni boshqaruvchi joydir. Shahar-bu, moddiy foydalarning yig'indisi, turar joylar, suv tarmoqlari, kanalizatsiya, temir yo'l stantsiyasi, bog'lar istirohat oromgohlari va turli madaniy -maishiy xizmat ko'rsatish ob'ektlari, tashkilot va korxonalar, zavod va fabrikalar joylashgan maskan.

Xullas, yirik aholi punktlari shaharlar deb ataladi. Aholi tarkibini ularning turar jrylariga qarab o'rganish ham muhim ahamiyatga ega. 1991 yilning boshlarida O'zbekistonda 40.3% aholi shaharlarda istiqomat qilardi. Bu ko'rsatgich ayniqsa, Toshkent viloyati (43.6%) va Qoraqalpog'iston Respublikasida (48.2%) yuqori edi. Keyingi yillarda Respublikada bu ko'rsatgich ancha barqarorlashdi. Bu shundan dalolat beradiki, mahalliy aholi uchun urbanizatsiya unchalik moyil emas. Aholining asosiy qismi tarixan qishloqlarda yashab kelmoqda.

Bu tajriba hozir ham davom etib kelmoqda. Qishloqda tug'ilish sur'atlarining yuqoriligi ham uning sabablaridan biridir. 1979-1991 yillarda qishloq aholisi 36.7% o'sgan bo'lsa, shahar aholisi 31.4% ga o'sdi. Agar aholining tabiiy o'sishi 1000 aholi hisobiga shaharda 19.5% bo'lsa, qishloqda

33.2 %. Aholining ijtimoiy -sinfy tarkibi va ish bilan -ta'minlanish muammosi o'rtasida yaqin bog'liqlik bor. 1917 yil arafasida O'zbekiston hududida aholi umumiy miqdorda ishchi va xizmatchilar 5%, dehqonlar 74.6%, qolgan ijtimoiy guruhlar - 20.45 edi. Mahalliy aholi kindik qoni tukilgan joyga mehrlil, uzoq manzillarga ko'chib borishga moyil emas. Bu holat umuman Markaziy Osiyo halqlarining an'anaviy xususiyatlariga mos tutadi. Xalq turmush darajasini ko'tarish faol demografik siyosatsiz mumkin emas. Bunday siyosat Respublikamizning ijtimoiy — iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarini xisobga olish, aholi sifat xarakteristikasini yaxshilashni, sog'lom hayot tarzini rag'batlantirishni ko'zda tutadi, Demografik siyosatning amalga oshirilishi aholi salomatligini tubdan yaxlashni taqazo etadi.

Shahar va qishloq aholisi joylashuviga qiyosiy tavsif.

Joyning tabiiy sharoiti, kishilarning mashg'ulotlari hamda turli iqtisodiy- ijtimoiy, tarixiy omillar ta'sirida aholi joylashuvining shahar va qishloq, ovul, ishchi shaharchasi kabi xillari tarkib topadi. Respublikamizda hozirgi vaqtda 124 ta shahar, 104 shaharcha va 12 mingga yaqin qishloq mavjud. Oktyabr to'ntarishigacha hozirgi O'zbekiston hududida 16 tagina shahar bo'lib, ular asosan hunarmandchilik va savdo - sotiq ishlari negizida daryo hamda soy bo'ylarida yoki karvon yullari ustida vujudga kelgan edi. Qadimgi shaharlarda turli davr me'morchilik namunalari bilan hamda ko'p qavatli binolar, tug'ri va keng ko'chalar uygunlashib ketgan.

Sanoat va madaniyatning yuksalishi bilan qadimgi shaharlar kengaymoqda hamda ularning eski va yangi qismlari o'rtasidagi tafovut tobora yuqolib bormoqda. Yangi shaharlar va ishchi shaharlari (Angren, Bekobod, Olmaliq, Chirchiq, Yangiobod, Navoiy Gazli, Uchquduq, Zarafshon va boshqalar) asosan qazilma boyliklar va suv resurslari mavjud tumanlarda bunyod etildi. Shaharchasi (Surxondaryo viloyati) ko'mir koni vujudga kelgan. Bular sanoat markazlaridir. Yangi erlarni o'zlashtirish va qishloq xo'jalik xom ashg'sini qayta ishlovchi sanoat negizida Yangiyul, Guliston, Yangier kabi shaharlar qad ko'tardi. Yangi shaharlar tashqi qiyofasi, rejasi bilan eski shaharlardan farq qiladi. Ularda fan-texnikaning so'ngi yutuqlari asosida barpo etilgan turar joy binolari, korxonalar madaniy muassasalar mujassam, xiyobonlar, favvoralar istirohat bog'lari barpo etilgan. Shahar xilidagi shaharchalar (Iskandar, Kegayli, O'lug'bek, G'ozg'on, Zomin, Olmazor kabi) temir yo'l bekatlari yonida, tog' - kon sanoati negazida va qishloq xo'jaligi yuksak rivojlangan joylarda barpo etildi. Shaharchalarning har birida 3 mingdan 26 minggaacha kishilik aholi yashaydi. O'zbekistonning tabiiy sharoiti (issiq iqlim va kuchli zilzilaning) uning shaharlari qiyofasiga jiddiy ta'sir etgan. Chunonchi tez-tez bo'lib turadigan zilzila O'zbekiston sharoitlarida baland binolar qurishni cheklaydi. Quyosh radiatsiyasining yuqoriligi binolarda quyosh to'sqich moslamalar bo'lishini talab etadi. Yozning issiq va quruqligi ko'klamzor maydonlarni kengaytirishni talab etadi. Shular oqibatida O'zbekiston shaharlari egallagan maydon Rossiya

Federatsiyasi, Belarus Respublikasi va Boltiqbo'yi davlatlaridagi aholi son jihatdan o'ziga teng bo'lgan shaharlardan birmuncha kattaroqdir.

Shaharlar sonining ortishiga xamoxang shaharlardan birmuncha kattaroqdir. Hozir O'zbekiston aholisining 40.8% shaharlarda yashamoqda. Tabiiy, iqtisodiy va tarixiy sabablarga qura O'zbekiston qishloqlarning aholisi "ko'p va qishloqlar bir biriga yaqin joylashgan. O'tmishda ko'chmanchi qabilalarning xujumlarini daf etish zaruriyati hamda obikor dehqonchiligida qul mehnatining ko'p qullanishi tufaili qishloqlarda aholi azaldan zich yashab kelmoqda. O'zbekiston qishloqlarining bunday xususiyatlari ularning aholisiga shahardagidek sharoit yaratish, umuman shahar bilan qishloq urtasidagi tafavutni yo'qotishda qulay omil hisoblanadi. Darhaqiqat, Koson, Yangiqo'rg'on, Yangibozor, Yakkabog', Hazorasp kabi unlab qishloqlarning qiyofasi shaharni eslatadi.

Ko'pgina qishloqlarda 3-4 ming kishilik aholiga ega bulgan zamonaviy shaharchalar vujudga kelgan. Aholi manzilgohlarining yuqorida ko'rsatib olingan xususiyatlari ularni yuksaltirishda quydagi vazifalarga e'tibor berishni taqazo etadi.

shaharchalarni rejalashtirishda kishilarning turar joyi bilan ish joyi orasi 4-5 km. dan o'zoq bulmasligi;

chorvachilik tumanlarida tarixan tarkib topgan mayda ovullarni kuchirib, o'zaro birlashtirish yo'li bilan xutor tizimini yo'qotish.

-qadimiy shaharlarni zamonaviy qulayliklarga ega qilib qayta qurish;

- yirik shaharlarda aholi ko'payib ketishi hamda ekologik vaziyatning buzilishiga sabab bo'ladigan korxonalarni qurishni cheklash va borlarini ko'chirish. Respublikamizda o'tkazilayotgan tub iqtisodiy islohatlarning zahirida aholining turmush darajasi bilan bog'liq masalalar turadi. Bu urinda mamlakatimiz raxbariyatining aholining yashash darajasini yaxshilash borasidagi iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishga qaratilgan muhim beshta tamoyillarining to'rtinchisida aloxida e'tibor berilganligini ta'kidlash kerak. Jiddiy iqtisodiy o'zgarishlar davrini o'z boshidan kechirayotgan xar qanday davlatda o'z xujalik tizimini yangidan bungd qilish va aholini moddiy talablarini qondirish dolzarb hisoblanadi. Ammo aholi turmush sharoitda ijtimoiy moddiy negizlarining bo'zilishi, kam ta'minlanganlik, sog'liqni saqlash sohasidagi kamchiliklar, ishsizlik muammolarining keskinlashuvi kabi xolatlar aniq ko'zga tashlanmoqda. Hayotimizda yuzaga kelgan ijtimoiy - iqtisodiy muammolar mamlakatimiz aholisining 3G`5 qismiga yaqinlashish o'zida mujassam etgan. Tabiiy kupayish ustun bulgan qishloq joylarda yaqqolroq sezila boshladi. Ana shuning uchun ham murakkab utish davrida aholini ijtimoiy himoya qilish mexanizmining ishlab chiqilishi, qishloq ijtimoiy va ishlab chiqarish infrastrukturasini yaratilishi va boshqa chora tadbirlar aynan qishloq joylarda ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishini yaxshilashga qaratilgandir.

Urbanizatsiya.

Urbanizatsiya hozirgi zamondagi eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardan hisoblanadi. Urbanizatsiya (lotincha "urban"-shahar) deb mamlakatda, hudud va jahonda shaharlarning o'sishi va shahar aholisi salmog'ining oshishiga, murakkab shaharchalar shahobchalari, tizimlarining paydo bulishi va rivojlanishiga aytiladi. Binobarin, urbanizatsiya jamiyat hayotida shaharlar ahamiyatining tarixiy ush jarayonidan, jamiyatning aholi mehnati, turmush tarzi va madaniyatining ko'proq shaharlarga mos bo'lib o'zgarib borishdan iboratdir. Urbanizatsiya ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning eng muhim tarkibiy qismlardan biridir. Hozirgi zamon urbanizatsiyasi butun jahonga tegishli jarayon bo'lib, kupchilik mamlakatlarga xos bulgan uchta umumiy xususiyatga egadir. Birinchi xususiyat shahar aholisi sonining xususan rivojlanagtan davdatlarda tez sur'atlar bilan borishi. Misol, 1900 yilda jahon aholisining 14% ga yaqin shaharlarda yashagan bo'lsa, 1950 yidda 29% ga, 1990 yil 45% etdi. O'rta xisobda olganda shaharlar aholisi xar yili 50 mln. Kishiga, 2000 yilga borganda shahar aholisi jaxon aholisining yarmidan oshib ketdi.

Ikkinchi xususiyat . - aholi va xujalikning asosan yirik shaharlarda to'planishi. Bunga ishlab chiqarish xususiyati, uning ilm-fan, ta'lim bilan alokasining murakkablanib borayotgani sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari, katta shaharlar kishilarning ma'naviy extiyojlarni odatda tulikroq qondiradi, har xil mollar va xizmatlarga talabi yaxshiroq ta'minlanadi, turli ahborotlar olishga osonroq buladi. Mashhur frantsuz me'mori Sh. E. M. Karbyuze "Katta shaharlar koinotning eng yaxshi asarlari yaratiladigan ruxiy usta xonalardir" deb yozgan edi. XX asr boshida jaxonda aholisi 100 mingdan ortiq bo'lgan 360 ta katga shahar mavjud edi.

AHOLI VA ATROF MUHIT.

Hozirgi vaqtda urbanizatsiya atrof-muhitning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillardan biri ekanini siz yaxshi bilasiz. Umumiy ifloslanish xajmining bir qismi ana shu urbanizatsiya bilan bog'liq.

Agar shaharlar quruqlik maydonining bor yug'i 1% ini egallagan xolda ularda dunyo aholisining deyarli yarmi va ishlab chiqarishning asosiy qismi tuplanganini xisobga olgan, buning hech bir ajablanarli joyi yo'q. Katta shaharlar va oploliratsiyalar ifloslikning deyarli asosiy manbai bo'lib, atrof muhitga ayniqsa kuchli ta'sir ko'rsatadi. Birinchi o'ringa aftidan, havoning ifloslanishini quyish kerak. Misol, kimyoviy tadqiqotlar ma'lumotlariga ko'ra, yirik shaharlarni ifloslovchi moddalari qoldiqlari va issiqlik ta'siri shahar atrofida 50 km. masofagacha kuzatiladi va 800 - 1000 .km. maydonni egallaydi. Bunda eng faol ta'sir shahar atrofidagi shu shahar maydoniga nisbatan 1.5-2 marta katga maydonda namoyon bo'ladi.

Los-Anjles, Mexiko kabi yirik shaharlar bekorga "iflos hududlar" deb atalmaydi. Shaharliklarga xazil qilib, shunday maslaxat beriladi; "Har kim kamroq va zarurat tug'ilganidagina iafas olsin". Keyingi vaqtlarda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda rasmiy idoralar va jamoatchilik

shahar muhitini muhofaza qilish va yaxshilash yuzasidan turli tadbirlarni amalga oshirmoqda. Rivojlanayotgan davlatlarda ahvol juda og'ir. Mablag'lari juda tanqis sharoitda kamchiqindini texnologiyaga o'tish u yoqda tursin, tozalash inshootlarni va ahlatlarni qayta ishlovchi zavodlar qurishni ham ta'minlay olishmadi.

XULOSA.

O'zbekistonda urbanizatsiyaning rivojlanishi bundan keyin ham iqtisodiyotda roli katta bulgan agrar ishlab chiqarish tarmog'i bilan bog'liq bo'ladi. O'zbekistonning mustaqillik sharoitida rivojlan-tirilishi unda yaqin kelajakda ko'plab sanoat korxonalari, birinchi navbatda qishloq xunsaligi xom ashyosini qayta ishlaydigi korxona;f paydo bulishiga yul ochadi. Bu o'z navbatida urbanizatsiya jarapshni yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqadi.

Bir tomondan 1989 yiddan e'tiboran O'zbekiston qishloq joylarda yashayotgan barcha oilalarni etarli miqdorda tomorqalar bilan ta'minlash, shaharlarda yashayotgan oilalar uchun atrof joylardan dala hovlilari ajratish yuzasidan Respublika Prezidenti tomonidan ko'rilgan chora tadbirlar, ikkinchi tomondan turli mulk shakllarining tobora keng tan olinayotganligi aholi joylashishida va uning rivojlanishida yangi istiqbollar ochib beradi.

O'zbekistonda shahar aholisi mutloq sonining o'sish sur'atlari butunlay aholiga nisbatan ham, qishloq aholisiga nisbatan ham ancha yuqoridir. Jumladan 1913 - 1989 yillar orasida Respublikada shahar aholisi 3.6 martagina o'sishga kirishdi. Shunga qaramay O'zbekistonda urbanizatsiya darajasi hamdo'stlik va undan ko'pchilik Respublikalaridagidan past. Jumladan, shahar aholisining salmog'i hamdo'stlikda 66% bo'lgani xolda O'zbekistonda bu ko'rsatgich 40.7% ga teng. Buning asosiy sababi O'zbekistonda sanoat rivojlanishining ancha past va qishloq aholisining o'sish sur'atlari yuqori ekanligidadir.

Noishlab chiqarish tarmoqlari geografiyasi fanidan referat mavzulari

Noishlab chiqarish sohasini xalq xo'jaligidagi o'rni, ahamiyati, fannning predmeti va vazifalari.

Xizmat doirasiga bo'lgan talab.

Noishlab chiqarish tarmoqlari geografiyasining tarmoqlar tarkibi.

O'zbekistonda xizmat doirasini rivojlantirish va uni hududiy tashkil etishga ta'sir ko'rsatadigan ayrim sharoitlar.

Ahg'oliga maishiy xizmat ko'rsatish.

O'zbekistonda aholiga savdo xizmati ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlari.

Aholiga aloqa xizmati ko'rsatish.

Aholiga madaniy va maishiy xizmat ko'rsatish.

Uy-joyga xizmat ko'rsatish.

Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish.

Aholiga transport xizmati ko'rsatish.

O'zbekistonda umumiy shahar va qishloq aholisining o'sib borishi nisbatlarini tahlil etish va baholash.

Xalqaro turizm.

O'zbekiston aholisining ijtimoiy-sinfiiy tarkibidagi tarixiy o'zgarishlari va mehnatda band aholini tahlil etish.

Dam olish, sog'lomlashtirish (Rekreatsioon) va turizm geografiyasi.

O'zbekiston ijtimoiy faol aholisining xalq xo'jaligi tarmoqlarida taqsimlanishi va dinamikasi.

Aholiga xizmat ko'rsatish belgisi, umumiy ovqatlanish, korxona tarmoqlari.

Aholiga aloqa muassasalari va omonat kassalarining xizmatlari.

Aholiga kommunal xizmat ko'rsatish.

Respublika uy-joy fondi.

Aholining jins va yosh tarkibi, oilaviy ahvoli, kasb hunari, tug'ilish va o'lim darajasi.

Aholining shahar va qishloqlardan taqsimlanishi.

Aholiga ijtimoiy-madaniy xizmat ko'rsatish.

Bozor munosabatlarining rivojlanib borishi, xizmat doirasida band bo'lgan aholi salmog'ining oshib borishi.

Mehnat resurslari bilan ta'minlanish va ulardan foydalanish darajasiga ko'ra viloyatlarning bir-biridan farqi.

Ayrim tarmoqlar holatining obzori.

Tibbiy ta'lim tizimi va kadrlar.

Sog'liqni saqlash tizimi, davolash va profilaktika muassasalarining davlat tasarrufidan chiqarish.

Aholiga yuridik xizmat ko'rsatish.

O'rta Osiyo Respublikalarida xizmat ko'rsatadigan muassasalarining quvvati.

Aholini ijtimoiy himoyalash-asosiy uzluksiz ustuvor yo'nalishdir.

Aholiga vaqtni tejab bera oladigan maishiy xizmat turlari.

Shahar atrof zonalaridagi muammolar.

O'zbekiston Respublikasining kommunal xo'jaligi.

Shahar va qishloq aholisining uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.

- 1. Tolibjon Madumaro`v va boshqalar . “ Ko`xna va navqiron Andijon ”
- T.: “SHARQ” 2010-yil.**
- 2. Shokarimov .S., Sultono`v .A . “Jannatmakon Andijon” –T .: “Islom
universiteti” 2002-yil.**
- 3. A. Soliev “Xududiy majmualarning nazariy asoslari” –T.: “Universitet”
2007-yil.**
- 4. X.Salimov ., A. Xatamo`v ., M.Mamajono`v . “O`zbekistonning iqtisodiy va
ijtimoiy geografiyasi ” –T.: “Yangi asr avlodi” 2008-yil.**
- 5. “Geografiya va uni o`qitish metodikasi ” kafedrasi . Noishlab chiqarish
tarmoqlari geografiyasi .(o`quv qo`llanma) –T.: 2007-yil.**
- 6. A. Soliev ., M . Nazaro`v . “O`zbekiston qishloqlari” –T .: “Universitet”
2009- yil .**